

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**"ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYALARI"  
KAFEDRASI**

**MATERIALLARNI KESIB ISHLASH, ASBOBLAR VA  
DASTGOHLAR**  
fanidan

laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha

**USLUBIY QO'LLANMA**

**Toshkent - 2013**

Ushbu uslubiy qo'llanma 5112100-Mehnat ta'limi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga "Materiallarni kesib ishlash, asboblar va dastgohlar" fanidan laboratoriya ishlarini bajarish uchun tayyorlangan. Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturga muvofiq ravishda kafedrada ishlab chiqilgan ishechi dastur asosida tuzildi.

Ushbu uslubiy qo'llanma ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar "Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi" fanidan o'qitilgan nazariy qismini laboratoriya ishlarida yanada mustahkamlash va puxtalashni nazarda tutadi.

### **Tuzuvchilar:**

- |                 |   |
|-----------------|---|
| D.U.Ergashev    | - "Ishlab chiqarish texnologiyalari" kafedrasi dotsenti p.f.n.    |
| N.I.Tursunbayev | - "Ishlab chiqarish texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| J.A.Xamidov     | - "Ishlab chiqarish texnologiyalari" kafedrasi o'qituvchisi       |

### **Taqrizchilar:**

- |                 |  |
|-----------------|--|
| U.Bobonazarov   | - A.R.Beruniy nomidagi TDTU "Mashinasozlik texnologiyasi" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| B.Muxamedsaidov | - "Umumtexnika fanlari" kafedrasi professori t.f.n.                                    |

Uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU ning o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

## **KIRISH**

Xozirgi kunda insoniyat hayotini va jamiyat taraqqiyotini mashina va mexanizmlarsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Ma'lumki, har qanday mashinaning detallari turli hil konstruksion materiallardan yasaladi. Shuning uchun ham aniq detalga munosib material tanlash, unga ishlov berish va uning turli xossalalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. "Materiallarni kesib ishslash, asboblar va dastgohlar" fani ana shu masalalarni o'rganishga bag'ishlangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma 5112100-Mehnat ta'limi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar "Materiallarni kesib ishslash, asboblar va dastgohlar" fanidan o'qitilgan nazariy qismini laboratoriya ishlarida yanada mustahkamlash va puxtalashni nazarda tutadi.

Har bir laboratoriya ishini boshlashdan avval xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishib chiqish shart. Xavfsizlik texnikasi qoidalari amal qilmaslik, laboratoriya mashg'ulotlarini e'tiborsizlik bilan o'tkazish turli hil baxtsiz xodisalarga sabab bo'lishi mumkin.

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki tajriba o'tkazadilar. Ilmiy texnik taraqqiyot sharoitida laboratoriya ishlari talabalarga nazariy bilimlarni qo'llash mexanizmini chuqur va ko'rgazmali o'rganish imkonini beradi. Laboratoriya mashg'ulotlari talabada tajriba o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi, tajriba o'tkazishning umumiy metodikasini egallahsha imkon beradi.

Laboratoriya ishlari talaba bilimini mustahkamlovchi, ularni yangi vaziyatga ko'chirib, amaliy masala va vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan.

## Laboratoriya № 1

**Mavzu: Kesuvchi asboblar tayyorlash uchun qo'llaniladigan asbobsozlik materiallarini o'rganish.**

**Ish maqsadi:** Asbobsozlik po'latlarga qo'yiladigan talablar ularning turlari markalanishi ishlatalishi bilan tanishish.

### **Umumiy ma'lumot**

Kesuvchi asboblarning kesish qobilyati ularning fizik mexanikaviy xossalari ya'ni qattiqligi mustahkamligi yeyilishga chidamliligi, otashbardoshliligi yopishqoqligi (adgeziya) bilan xarakterlanadi.

1. Kesuvchi asbob materialining qattiqligi ishlov berilishi kerak bo'lgan. Materialning qattiqligi nisbatan yuqori bo'lishi kerak.

Asbobsozlik materialining qattiqligi va mustahkamligi material tarkibidagi karbidlarning yordamchi tashkil etuvchilarning o'zaro nisbati dondorligi katta ta'sir ko'rsatadi.

Material tarkibidagi karbidlarning miqdori ortib borishi bilan materiallarning qattiqligi va yeyilishga chidamliligi ortadi mustahkamligi kamayadi.

2. Materiallarning issiqlik o'tkazuvchanligi yuqori bo'lishi kerak. Chunki issiqlik o'tkazuvchanligi qancha yuqori bo'lsa kesish zonasidan issiqliknинг tarqalishi tarqaladi va natijada keskich bilan zagotovkaning kontak yuzalaridagi harorat kamayadi.

3. Asbobsozlik materiallarning otashbordoshligi, uning fizika – mexanikaviy xossasini o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Ya'ni uning qattiqligi pasayadi, yeyilishi ortadi. Ayrim adabiyotlarda otashbardoshlik, yuqori temperaturaga chidamlilik kabi termin bilan yuritiladi. Materialning yuqori temperaturaga ortib borishi bilan kesish jarayonini yuqori tezlik bilan olib borish mumkin. Demak ish unumdorligi ta'minlanadi.

4. Asbobsozlik po'latlarining ishqalanib yeyilishi ularning ishqalanish kuchi ta'sirida yeyilishiga qarshilik ko'rsatishi qobilyati bilan xarakterlanadi.

5. Asbobsozlik va ishlov berilayotgan materialning yopishqoqligi (adgeziyasi) asbob bilan zagotovka o'rtasidagi kontakt yuzalardagi harorat va bosim ta'sirida rivojlanuvchi molekulyar kuchlarga bog'liqdir.

Yopishqoqlik asbobsozlik va ishlov berilayotgan materiallarning bir – biriga yopishish temperaturasi orqali aniqlanadi. Yopishish temperaturasi qanchalik yuqori bo'lsa kesuvchi asbob materialining sifati shuncha yuqori bo'ladi. Kesuvchi asboblar tayyorlash uchun qo'yidagi materiallardan foydalaniladi: asbobsozlik po'latlar, metall keramik qattiq qotishmalar, mineralo keramik materiallar, kermitslar, almazlar, nitridlar abraziv materiallar va konstruksion po'latlar. Asbobsozlik po'latlar qo'yidagi turlarga bo'linadi: uglerodli, ligerlangan va tez kesar po'latlar.

Uglerodli asbobsozlik po'latlarining asosiy tashkil etuvchi elementi uglerod bo'lib, ular asosan ikki gruppaga bo'linadi, ya'ni sifatli va yuqori sifatli po'latlar. Bu gruppalarning har biri tarkibidagi uglerod miqdoriga qarab sakkiz tur markaga

ajratiladi. U10A – uglerod miqdori 0,95 – 1,04%, U12A - -1,05-1,14%, U11A – 1,05-1,14%. Termik ishlov berishda keyin bu po‘latlarning qattiqligi N-58-64: otashbardoshligi  $-200-250^{\circ}$  oralig‘ida bo‘ladi. Uglerodli po‘latlar yomon toplanadi. Ya’ni toblast jarayonida yorilish, deformatsiyalanish kabi nuqsonlar sodir bo‘lishi mumkin. Bu po‘latlardan asosan kichik tezliklarida ishlovchi asboblar metchiklar, zenkerlar, yegovlar va yog‘ochga ishlov berishda qo‘laniladigan asboblar tayyorlanadi.

Ligerlangan po‘latlar tarkibida ligerlovchi elementlarni «xron, volfram, molibden, vanadiy» qo‘shilganligi tufayli po‘latlarga nisbatan ancha yuqori kesuvchanlik xossasiga egadir. Termik ishlov berilgandan keyin bu po‘latlarning qattiqligi N-62-64 birlikka teng bo‘lib otashbardoshligi 250-300 gradus atrofida bo‘ladi. Bu po‘latlardan tayyorlangan kesuvchi asboblar uchun ruxsat etilgan kesish tezligi uglerodli po‘latlarga nisbatan 20-40 % yuqoridir.

Kesuvchi asboblar tayyorlash uchun ko‘pchilik vaqtida xrom, kremniy, 9 XS, xrom volfram morganetsli XVT, xrom volframli XV 5 po‘latlar ishlataladi. Keyingi davrlarda 9 XS markali po‘lat o‘rniga tarkibiga qo‘shimcha marganets va volfram qo‘shilgan 95 XGSVF markali po‘lat keng ishlatila boshlandi.

GOST 5950-70 bo‘yicha tayyorlangan va ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladigan ligerlangan asbobsozlik po‘latlarning kimyoviy tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Po‘latlar markasi	Uglerod miqdori %					
	Uglerod	Marganets	Kremniy	Xrom	Volfram	Vanadiy
DXS	0,85-0,95	0,90-0,60	1,20-1,60	0,95-1,25	-	-
XVG	0,90-1,05	0,86-1,10	0,15-0,35	0,90-1,20	1,20-1,60	-
XV 5	1,25-1,45	0,15-0,40	0,15-0,35	0,40-0,70	4,0-5,0	0,1-0,3

Bu po‘latlarda zenkerlar, razvedkalar, metchiklar, protyajkalar tayyorlashda keng qo‘llaniladi.

Tez kesar po‘latlar tarkibida ularning otashbardoshligini orttiruvchi elementlarni «Volfram» ma’lum darajada yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Bu po‘latlarning otashbardoshligi  $600^{\circ}\text{C}$  qattiqligi NS -62 -84 ga teng bo‘lib ruxsat etilgan kesish tezligi uglerodli po‘latlarga nisbatan 2-3 barobar yuqoridir. Tez kesar po‘latlar ikki guruhga bo‘linadi:

1. Normal otashbardoshlar
2. Yuqori otashbardoshlar

birinchi guruxga R 18 R9 R12 R6M5 R6M3 markali po‘latlar kiradi. R18 markali po‘lat tarkibida 17,5-19 %, R9 markalisida esa 8,5-10 % volfram mavjuddir. R12 markali po‘latning tan narxi R18 ga nisbatan 30% kam bo‘lib bir xil massada zichligi ancha kamdir bu xoll R18 markali po‘latlarda 4 % ko‘proq asbob tayyorlash imkonini beradi metallokeramik qattiq qotishmalar kobalt yordamidan bog‘langandan qiyin yeruvchi metall karbitlardan iboratdir.

Bu qotishmalar preslash va pishirish metodi bilan tayyorlanadi. Qattiq qotishmalar yuqori temperaturaga ( $800 - 900^{\circ}$ ) chidamliligi yuqori zichligi qattiqligi (NRA87-92) va yuqori temperaturada yejilishga chidamliligi bilan

xarakterlanadi.

Kesuvchi asboblar tayyorlash uchun har xil formali va razmerli (GOST 9209-69) quyidagi sostavdagi plastinkasimon qattiq qotishmalar ishlataladi.

1. Volframli (1 karbitli).
2. Titan volframli (2 karbitli).
3. Titan tantal volframli (3 karbitli).

Volfram gruppali qattiq qotishmalar volfram va bog'lovchi sifatida kobaltdan iboratdir.

Bu grupper qotishmalarining quyidagi shakllari mavjuddir; VKZ, VK4, VK4V, VK6V, V6, VK8, VK10, VK15, va h. Bu yerda V harfi grupper turini, K - kobalt. sonlar esa kobaltning protsent miqdorini ko'rsatadi Markirovkani oxiraga qo'yilgan M va V xarflari qotishma strukturasani dondorligini (M – mayda dondorlik, V – yirik dondorlik) bildiradi. Bu po'latlarning mustahkamligi ancha yuqori bo'lib, otashbardoshligi sezilarli darajada kamayadi.

Ishlab-chaqarishda tarkibida 3-5% molibden mavjud bo'lgan tezkesar po'latlar keng qo'llanilada. (R6MZ, R6M5). Molibden po'latlarning - mexaaik xossasiga volfram kabi ta'sir ko'rsatadi. Bu po'latlarda og'ir sharoitlarda ishlovchi kesuvchi asboblar tayyorlanadi.

Ikkinci gruppaga tarkibida vannadiy va kabolt qo'shilgan po'latlar kirada. Masalan: R9F5, R14F4, R18F2 markali po'latlar tarkibada 1,8-5,1% vannadiy, R9K5, R9K10 markalarida - 5-106% kobal't, R10K5F5 va R18K5F2 markali po'latlar tarkibidan esa vannadiy va kobalt elementlari mavjuddir.

Po'latlarning tarkibga 10% kobalt qo'shilsa ularning otashbardoshligi 650°C gacha, qattiqligi esa NS - 7-8 gacha ortadi.

Yaqinda otashbardoshligi 700-720°C gacha bo'lgan normal mustaxkamlikka ega R18M3K25, R18M7K25 va R10M5K25 markali-po'latlar yaratildi. Bu po'latlardan tayyorlangan kesuvchi asboblar titan qotishmalariga va oloybardosh materiallariga ishlov berishda qo'llaniladi. Tez kesar po'latlardan keskichlar, parmallar, zenkerlar, razvertkalar, plashkalar, metchiklar, frezalar, protyajkalar tayyorlaniladi.

Titak-volfram gruppadagi qotishmalar yeyilishga chidamliligi va egilishga qarshilik ko'rsatshi qobiliyat kamligi bilan xarakterlanib, asosan qovushqoqli yuqori bo'lgan materialarni po'latlarni kesib ishslashda qo'llaniladi. Bu gruppaga kiruvchi qotishmalarning T5K10, T15K12, T14K8, T15K6, T3OK4 kabi markalari mavjuddir. Qotishmalarning markirovkasi tarkibidaga T harfi – titanning miqdorini (protsentda), K - kobal'tni ko'rsatadi. Masalan; T5K10 markali qotshima tarkibi 5% titan karbidi, 10% kobalt va 85% volfram karbadidan iboratdir.

Titan-tantal-volfram gruppasiga kiruvchi qotishmalar titan karbidi. tantal karbidi, volframli karbidi va bog'lovchi sifatida kobolt zarrachalaridan iborat bo'lib markalanishdagi TT xarflari titan va tantal karbidining, K - xarfi esa kobalt miqdorini (protsentlarda) bildiradi. masalan: TT7K12 – markali qotishma tarkibada 7% titan va tantal karbidi, 12% kobalt 81% volfram karbidi mavjuddir.

Mineralo keramik materiallar Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> (gekozen) oksadidan katta bosim ostida preslash usuli bilan olinadi. Termik ishlov berilgandan keyin bu qotishmaning, siqilishiga mustahkamligi 500 kg/mm<sup>2</sup> qattiqligi NRA 89-95; otashbardoshligi 1200° S atrofida bo'ladi.

Kermitslar V3 - bu qotishma meniralokeramikaga metall korbidlari qo'shilib o'zaro metal bog'lovchilar bilan bog'langan bo'lib qovushqqa va turg'unlikka egadir. Bu qotishmaning mustahkamligi  $50-60 \text{ KGe/mm}^2$  va yuqoriroqdir.

Almazlar yuqori qattaqligi yeylishga chadamliligi ximiyaviy jihatdan aktivligi ishqalanish koeffitsiyenti kichikligi, kam yopishqoqliga bilan xarakterlanadi. Almazlar yuqori otashbardoshlikka ( $750^\circ\text{C}$  gacha) ega bo'lib o'tkir kesuvchi qirra olish imkoniyatini beradi. Bu materiallarning kamchiligi tannarxini qimmatligi va egilishga chidamliligi ham ( $30 \text{ KGe/mm}^2$ ) bo'lishidir. Kesuvchi asbob tayyorlash uchun og'irligi  $0,31-0,85$  karat olmos krisallari ishlatiladi. Bu keskichlar rangli metallarni yo'nishda qotishma va metalmas materillarga ishlov berishda qo'llaniladi. Bor nitridi (elborgeksonid) sintetik materiallar bo'lib olmos o'rnila ishlatiladi. Bu materiallar azot va borning ximiyaviy brikmasidan iborat bo'lib otashbardoshligi  $120-1300^\circ$  teng. Bu qotishma yuqori mustahkamlikka ega bo'lgan cho'yanlarni toblangan po'latlarni yo'nishda va frezalashda qo'llaniladi.

Yangi o'ta qattiq materiallar tarkibi yarim kristall ko'rinishidagi sintetik olmos paraoksidi yuqori temperatura va bosim ta'sirida olinadi.

Keyingi davrda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining o'ta qattiq materiallar instituti Slavutich deb nomlangan o'ta qattiq materiallar kashf qilingan. Bu materiallarning yeyilishga chidamliligi olmosga teng bo'lib mustahkamligi olmosga nisbatan yuqoriroqdir. Bu materialdan to'g'irlovchi qalamlar, roliklar, bloklar tayyorланади. Yaqinda volframsiz metallokeramik qotishmalar tayyorlash texnologiyasi yaratildi. Bu materiallarda (TNM20, TNM25 KTN20, KTN30) tayyorlangan kesuvchi asboblar ferritli, nikkelli, miss va melxior kabi materiallarga ishlov berishda qo'llaniladi.

Konstruksion po'latlar esa keskichlarning tana qismlarini yig'iluvchi keskichlarning korpuslarini tayyorlash uchun qo'llaniladi. Bu maqsaddan asosan 40-45-50 markali po'lat uglerodli va 45X, 45XN kabi sifatli konstruksion po'latlar ishlatiladi.

## Laboratoriya ishi № 2

### **Mavzu: Tokarlik keskichlarining turlari va konstruksiyasini o'rganish.**

**Ish maqsadi:** Tokarlik keskichlarining turlarini va konstruksiyasini bilan tanishish.

#### **Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.**

1. Turli tipdagи tokarlik keskichlar komplekti (namuna);
2. Tokarlik keskichi konstruksiyasining sxemasi;

#### **Ishni bajarish tartibi.**

1. Turli tipdagи tokarlik keskichlar komplekti.
2. Tokarlik keskichlarining vazifasiga ko'ra ishlatilishi bilan tanishiladi.
3. Keskichning qismlari diqqat-e'tibor bilan o'rganiladi va chizmasi chiziladi.
4. Turli keskichlarning asosiy elementlarini rangli qalamlarda (bir xil elementlari bir xil rangda) chiziladi.

#### **Umumiy ma'lumot**

Tokarlik keskichi metallarni kesib ishlashda eng ko'p tarkalgan kesuvchi asbob bo'lib, bajariladigan ish turiga ko'ra xilma-xil bo'ladi.


Keskichlarning vazifasiga ko'ra ular qo'yidagi asosiy turlarga bo'linadi (1-rasm):

- a) utuvchi keskich (*a*) tashqi silindrik va konusli yuzalarni xomaki va tozalab yunish uchun ishlatiladi.
- b) kesib tushiruvchi keskich (*g, d*) zagotovka yoki detallarni kesib tushirish uchun ishlatiladi.
- v) Asosiy plandagi burchagi  $90^{\circ}$ ga teng bo'lgan chapakay (*v*) utuvchi keskichlar; ular tashqi yuzani yunish bilan birga shu yuzaga to'tashgan torets yuzani bir vaqtda kesib ishlash uchun ishlatiladi.
- g) Galtel keskichlari (*ye*) galtellar (pogonali valning bir diametr dan ikkinchi diametrga o'tish joylari) yunish uchun ishlatiladi.
- d) Rezba keskichlari (*z, i*), sirtqi (*z*) va ichki (*i*) rezbalar qirqish uchun ishlatiladi.

Torets yunish keskichi (*v*) buylama va ko'ndalang yunishda ishlatiladi. Bu keskichlardan toretslarni yunishda foydalilanildi.

j) Yunib kengaytirish keskichi (*k, ya*) mavjud teshiklarni kengaytirishda ishlatiladi. Bu keskichda yunib kengaytirish bilan birga toretslarni ko'ndalangiga kesish xam mumkin.

z) Fason keskichlar (*j*) ko'ndalang surish yo'li bilan shakldor yuzalar yunish uchun ishlatiladi, bunda keskich kesuvchi qismining profili detalning yuniladigan shakldor yuzasi profiliga mos keladi.




**1-rasm. Tokarlilik keskichlarning asosiy turlari va ularning yordamida bajaridigan ishlar**

Keskichlar (1-rasm a, b) ikkita qismdan iborat.

Kalla qismi – 2 va tanasi – 5. (2-rasm) Keskich kalla qismi ishchi qismi bo‘lib tanasi yoki o‘zagi keskichni stanok, keskich tutqichiga o‘rnatish va qotirish uchun xizmat qiladi. Keskich ishchi qismi asbobsozlik po‘lat. Metallokeramik qattiq qotishma mineralokeramika yoki olmoslardan tayyorlanishi mumkin.

Keskich kalla qismida quyidagi elementlar mavjud: oldingi yuza kesish jarayonida kesib olinayotgan qirindi bilan kontaktda bo‘ladi: asosiy va yordamchi orqa yuzalar (asosiy – 3, yordamchi - 4). Ishlov berilayotgan detalga qaragan yuzalar kesuvchi qirralari oldingi va orqa yuzalarning kesishishdan hosil bo‘ladi.

Kesuvchi qirralar asosiy kesish jarayonida ish bajaruvchi va kesuvchi qirralarga bo‘linadi. Asosiy kesuvchi va yordamchi qirralarning kesishish nuqtasi keskich cho‘qqisi deb yuritiladi.



**2-rasm. Keskichning asosiy qismi va elementlari**

Keskich kesuvchi qismning formasi kesuvchi qirralarning, oldingi va orqa yuzalarning shakllariga bog'liq bo'ladi.


Yuqorida qayd qilingan yuzalarning va kesuvchi qirralarning o'zaro joylashishi keskich burchaklari deb yuritiluvchi parametr yordamida aniqlanadi.

Ishlov berilayotgan zagotovkada undan qirindi ajratib olish jarayonida (3-rasm) quyidagi yuzalar namoyon bo'ladi.

1 - ishlanishi kerak bo'lgan, qirindi kesib olinishi kerak bo'lgan yuza;

2 - keskich yuzasi, keskichning kesuvchi qirrasini zagotovkada hosil qilayotgan yuzasi;

3 - ishlov berilgan qirindi olib tashlangandan keyin hosil bo'lgan yuza.



**3-rasm. Metallarni normal kesish bilan yo'nishdag'i tekisliklar va yuzalar**

**Ish xaqida xisobot.** Xisobotda bajariladigan ishdan maqsad, keskichlarning turlari yoziladi, sxemalari chiziladi.

## Laboratoriya ishi № 3

### **Mavzu: Tokarlik keskichlarining geometrik parametrlarini aniqlashni o'rganish.**

**Ish maqsadi:** Tokarlik keskichlarining geometrik parametrlarini aniqlash.

#### **Ishni bajarish uchun zaruriy asbob-uskuna va materiallar:**

1. Turli tipdagи tokarlik keskichlar komplekti;
2. Shtangensirkul;
3. Universal burchak o'lchagich;
4. Chizma kurollari;
5. Rangli kalam komplekti.

#### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Keskichning qismlari diqqat-e'tibor bilan o'rghaniladi va chizmasi chiziladi.
2. Keskichlarning burchaklari bilan tanishib, ularning qiymati universal burchak o'lchagich yordamida aniqlanadi va jadvalga yoziladi.

#### **Umumiy ma'lumot**

Keskich burchaklarini aniqlash uchun quyidagi tekisliklar kordinat yuzalar qabul qilingan kesish yuzasi - 4, asosiy yuza - 5, asosiy kesuvchi tekislik N-N (1-rasm) yordamchi kesuvchi tekislik N1-N1 (1-rasm).

Kesuvchi tekislik deb-kesish tekisligiga urinma bo'lib asosiy kesuvchi qirra orqali o'tuvchi tekislikka aytildi.

Asosiy tekislik deb, ko'ndalang va bo'ylama burish yo'nalishiga paralel qilib o'tkazilgan tekislikka aytildi.

Asosiy kesuvchi tekislik (N-N (1-rasm)) deb asosiy kesuvchi qirraning asosiy tekislikka tushirilgan proyeksiyasiga tik qilib o'tkazilgan tekislkkka aytilda. Yordamchi kesuvchi tekislik.


(N1-N1 (1-rasm)) deb, yordamchi qirraning asosiy tekislikdagi proyeksiyasiga tik o'tkazilgan teshkislikka aytildi.

Keskich burchaklari ikki xil holatda aniqlanadi: turg'un xolatda -statik burchaklar, yoki kesib ishlash jarayonida - kinematik burchaklar. Statik holatdagi keskich burchaklari ko'rinishi 3 chi shaklda keltirilgan.

Keskichlarda asosiy va yordamchi burchaklari mavjud. Asosiy burchaklar asosiy kesish tekisligida (N-N) o'lchaniladi. Bu burchaklarga: asosiy orqa burchak  $\alpha$  - asosiy orqa tekislik bilan kesish tekisligi orasidagi burchak: o'tkirlanish burchagi  $\beta$  asosiy orqa va oldingi yuza orasidagi burchak: oldingi burchak  $\gamma$  keskich oldingi yuzasi bilan kesishish tekisligiga tik qilib o'tkazilgan tekisliklar orasidagi burchak: kesishish burchagi – oldingi yuza bilan kesishish tekisligi orasidagi burchaklar kiradi.

1-rasmdan ko'rindiki agar oldingi burchak  $\gamma$  ning qiymati musbat bo'lib

burchaklar orasidagi quyidagi bog‘lanish mavjud bo‘ladi.



**1-rasm. Tokarlik keskich kesuvchi qismi geometriyasining asosiy elementlari**

$$a + b + g = 90^\circ \quad (1)$$

$$d = a + b \quad (2)$$

$$d + g = 90^\circ \quad (3)$$

$$d = 90 - a \quad (4)$$

$\alpha$  - manfiy qiymatda.

$$d = 90^\circ + a \quad (5) \text{ bo‘ladi.}$$

Keskichning yordamchi burchaklari yordamchi kesuvchi tekislik (N1-N1) bo‘ylab o‘lchanadi. Yordamchi orqa burchak deb yordamchi orqa yuza bilan asosiy tekislik yordamchi kesuvchi qirradan tik tushirgan tekisliklar orasidagi burchakka aytiladi. YA’ni yordamchi orqa burchak  $\alpha_1$ , yordamchi kesish burchagi  $\gamma_1$ , o’tkirlanish burchagi  $\beta_1$  lar mavjuddir.


Plandagi burchaklar asosiy tekislikda o‘lchanadi. Plandagi asosiy burchak  $\gamma$  deb zagotovkaning aylanish o‘qi bilan asosiy kesuvchi qirraning asosiy tekislikdagi orasidagi burchakka aytiladi. Plandagi yordamchi burchak  $\gamma_1$  deb yordamchi kesuvchi qirraning asosiy tekislikka proyeksiyasi bilan surish yo‘nalishi orasidagi burchakka aytiladi. Keskich chuqqisidagi burchak  $\varepsilon$  - deb asosiy va yordamchi kesuvchi qirraning asosiy tekislikda proyeksiyalari orasidagi burchakka aytiladi.

Plandagi burchaklarning yig‘indisi  $180^\circ$  teng. Ya’ni

$$\gamma + \gamma_1 + \varepsilon = 180^\circ \quad (6)$$

Asosiy kesuvchi qirra bilan qiyalik burchagi deb kesuvchi qirra bilan keskich chuqqisidan asosiy tekislikka parallel o’tkazilgan tekisliklar orasidagi

burchakka aytildi. (2-rasm)



Bu burchak kesish tekisligi bo‘ylab o‘lchanadi. Agar keskich chuuqisi kesuvchining eng pastki nuqtasida bo‘lsa (2-rasm (a)) burchak musbat. Yuqori nuqtasida bo‘lsa (2-rasm (v)) manfiy qiymatga ega bo‘ladi. Agar kesuvchi qirra asosiy tekislikka parallel joylashgan bo‘lsa,  $\lambda$  - burchagi nolga teng bo‘ladi (2-rasm (b)).

### **KESKICHNING GEOMETRIK PARAMETRLARINI O‘LCHASH**

Keskichning tanasi razmerlari (BXN4M) shtangensirkul bilan geometrik parametrlari esa universal yoki maxsus uglomerlar bilan o‘lchanadi.

Tubandagi 3-rasmida keskich plansdagi asosiy burchak  $\varphi$  - ning qiymatiga o‘lchash ko‘rsatkichini o‘lchashda uglomer plankasi 1 – ni kesuvchi qirraga, planka 2 – ni esa kesichning yon tomonga jips holda joylashtiriladi. Uglomer shkalasidagi qiymat  $\varphi$  - burchagini qiymatini ko‘rsatadi. Xuddi shunday usul bilan  $\varphi_1$  – burchagini qiymatini ham aniqlanadi.

Keskich cho‘qqisidagi burchak qiymati esa tubandagi formula bilan hisoblanadi.


$$e = 180^0 - (j - j_1) \quad (7)$$

Maxsus uglomer yordamida yordamchi oldingi va orqa burchaklar, kesuvchi qirraning qiyalik burchagini qiymatini o‘lchash mumkin.


Asosiy orqa burchak  $\alpha$  - ning qiymatini o‘lchash sxemasi rasm 6 a da, oldingi burchak  $\alpha$  - ning qiymatini o‘lchash rasm 6 b da ifodalangan.

Yuqorida qayd etilgan burchaklar o‘lchab olingandan keyin qolgan burchaklarning qiymatlarini tubandagi formulalar yordamida hisoblab topish mumkin.

$$\begin{aligned} a > 0 \text{ bo‘lganda } d &= 90^0 - a; \quad b = 90^0 - (a - g) \\ a < 0 \text{ bo‘lganda } d &= 90^0 + a; \quad b = 90^0 - (a + g) \\ a = 0 \text{ bo‘lganda } d &= 90^0 \quad b = 90^0 - a \end{aligned}$$




**3-rasm. Keskich plandagi burchaklarini o'lchash sxemasi.**



**4-rasm. Keskich orqa burchagini (4-rasm (a)), oldingi burchagini (4-rasm (b)) va kesuvchi qirrasining qiyalik (4-rasm (v)) burchaklarini o'lchash sxemasi.**

O'lchash va hisoblash natijasida aniqlanilgan burchak qiymatlariga asoslanib keskich ishchi qismining eskizi chiziladi.



**5-rasm**

### 3- LABORATORIYA ISHINING QARORI.

#### KESKICH GEOMETRIK PARAMETRLARI, KONSTRUKSIYASI

Keskich tipi	Keskich parametrlari	NAS buyicha qattiqligi	Ko'ndalang kesim parametrlari v/n	Burchaklar							
				asosiy			plandagi			yordamchi	qiyalik
				$\alpha$	$\alpha$	$\beta$	$\delta$	$\phi$	$\phi_1$	$\epsilon$	$\alpha$

## Laboratoriya ishi № 4

### Mavzu: Parmalarning turlari va konstruksiyasini o‘rganish.

**Ish maqsadi:** Parma turlari, konstruksiyasi va spiralsimon parmaning asosiy elementlari bilan tanishish.

#### **Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.**

1. Turli tipdagi parmalar komplekti (namuna);
2. Parma konstruksiyasining sxemasi;

#### **Ishni bajarish tartibi.**


1. Turli tipdagi parmalar komplekti.
2. Parmalarning vazifasiga ko‘ra ishlatilishi bilan tanishiladi.
3. Parmaning qismlari diqqat-e’tibor bilan o‘rganiladi va chizmasi chiziladi.
4. Parmaning asosiy elementlarini rangli qalamlarda (bir xil elementlari bir xil rangda) chiziladi.

#### **Umumiy ma’lumot**

Spiral parma yaxlit materiallarda o‘tuvchi va boshi berk teshiklar teshish, avvaldan mavjud teshiklarni kengaytirish uchun foydalilanadi.

Bunday parmalarning ishlash prinsipi *1-rasmida* ko‘rsatilgan. Teshish jarayonida parma o‘z o‘qi atrofida aylanma, bu o‘q bo‘ylab bo‘ylama harakat qiladi.

Detal /2/ esa stanok stolida /I/ qo‘zg‘almas qilib qotiriladi. Tokarlik va revolver stanoklarida esa parma ilgarilanma harakat qiladi. Detal esa aylanadi.




**I-rasm**

Spiral parma (2-rasm), ishchi qismi -  $\ell$ , bo‘yini  $\ell_1$ , quyruq qismi  $\ell_2$  va lapka -  $\ell_3$  lardan iborat.


Parmaning quyruq qismi silindr formali qilib tayyorlanib, bu qismi bilan stanok patroniga o‘rnatish va qotirish uchun xizmat qiladi. Bu tipdagi parmalarning

diametri D=10 mm gacha bo‘ladi.



2-rasm. Spiralsimon parmaning elementar qismlari

Spiral parmaning kesuvchi qismini asosiy elementlari quyidagi rasm 3 da ko‘rsatilgan.



3-rasm. Spiral parmaning kesuvchi qismini asosiy elementlari

Parma kesuvchi qismi kkkta parma o‘qiga nisbatan simmetrik joylashgan AV va YES kesuvchi qirra, ko‘ndalang qirra YES, vintsimon chiziqcha bo‘ylab joylashgan ikkita yordamchi kesuvchi qirralar AK va YE $\ell$  dan iborat.

Parmani ishlash jarayonida teshik devorlariga ishqalanishi kamaytirish maqsadida uning ishchi qismida parma diametriga teng qilib jilvirlangan lenta  $f$  - qoldiriladi.

Parmaning ikkita asosiy kesuvchi qirrasi orasidagi burchak parma cho‘qqisidagi burchak  $2\phi$  deb yuritalada va uning qiymati  $118-120^\circ$  atrofida

bo‘ladi. Ko‘ndalang kesuvchi qirraning qiyalik burchagi  $\psi$  ko‘ndalang va asosiy kesuvchi qirralarni parma o‘qiga tik qilib o‘tkazilgan tekislikdagi soyalarning oralig‘idagi qiymat bilan xarakterlanadi.

Parma to‘g‘ri charxlangan bo‘lsa, bu burchak  $\psi=50-50^0$  atrofida bo‘ladi.

Parma vintsimon o‘yiqning ko‘tarilishi parma o‘qi bilan uning vintsimon chizig‘ini tashqi diametrga o‘tkazilgan urinmaning soyasi oralig‘idagi burchak qiymati ( $\omega$ ) bilan aniqlanadi.

Bu burchak oldingi burchak  $\alpha$  - ning qiymatini va qirindini oldingi yuza bo‘ylab chiqish sharoitini xarakterlaydi.

Spirlasimon parmalarda ishchi qismi ko‘ndalang kesuvchi qirra VS va tutashish chizig‘ining /permichsa/ qalinligi  $h$  - mavjuddir, /3-rasm/. Asosiy kesuvchi qirra oldingi yuza 1 va orqa yuza 2 larning kesishidan hosil bo‘ladi.

### **Ish xaqida xisobot.**

Xisobotda bajariladigan ishdan maqsad, keskichlarning turlari yoziladi, sxemalari chiziladi.

## Laboratoriya ishi № 5

### **Mavzu: Parmalarning geometrik parametrlarini o‘rganish.**

**Ish maqsadi:** Spiralsimon parma geometriyasini va geometrik parametrlarini o‘lchashni o‘rganish.

#### **Ishni bajarish uchun zaruriy asbob-uskuna va materiallar:**

1. Turli tipdagi parmalar komplekti;
2. Shtangensirkul;
3. Universal burchak o‘lchagich;
4. Chizma kurollari;
5. Rangli kalam komplekti.

#### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Spiralsimon parma diqqat bilan o‘rganiladi va chizmasi chiziladi.
2. Spiralsimon parmaning burchaklari bilan tanishib, ularning qiymati universal burchak o‘lchagich yordamida aniqlanadi va jadvalga yoziladi.

#### **Umumiy ma’lumot**

Spiralsimon parmalarining kesuvchi qirra burchaklari ko‘yidagi tekisliklarda o‘lchaniladi:

1. Asosiy kesuvchi qirraga tik yo‘nalishda kesuvchi qirraning 1, 2, 3 nuqtalari orqali o‘tkazilgan  $N_1N_1$ ;  $N_2N_2$ ;  $N_3N_3$  kesmalar bo‘ylab;

2. 1, 2, 3 nuqtalardan o‘tuvchi, parma o‘qiga parallel va uning aylanishidan hosil bo‘lgan doiraga o‘rinma qilib o‘tkazilgan  $0_10_1$ ;  $0_20_2$ ;  $0_30_3$  tekisliklarda.

Parmaning asosiy oldingi burchaklari  $g_1$ ;  $g_2$ ;  $g_3$  lar asosiy kesuvchi qirraga tik yo‘nilgan tekisliklar  $N_1N_1$ ;  $N_2N_2$ ;  $N_3N_3$  da joylashgan.

Asosiy oldingi burchak deb, kesuvchi qirraning biror nuqtasidan parma oldingi yuzasiga urinma qilib o‘tkazilgan tekislik bilan, o‘sha nuqta orqali parma kesuvchi qirrasining aylanishidan hosil bo‘luvchi yuzaga tik qilib o‘tkazilgan tekisliklar orasidagi burchakka aytildi.

Tubandagi rasm 4-da olilgan 1,2,3 nuqtalarga mos keluvchi burchak qiymatlari  $g_1$ ;  $g_2$ ;  $g_3$  lar ifodalangan.

Oldingi burchaklar  $g_1$ ;  $g_2$ ;  $g_3$  burchaklar parma o‘qiga parallel va 1, 2, 3 nuqtalardan parma o‘qi atrofida aylanishi tufayli hosil bo‘luvchi doiraga urinma  $0_10_1$ ;  $0_20_2$ ;  $0_30_3$  tekisliklarda tasvirlangan. Bu burchaklar bir vaqtida parma vintsimon o‘yiqning ko‘tarilish burchagidir. YA’ni

$$g' = w_1; \quad g'' = w_2; \quad g''' = w_3;$$

Rasm 5-da  $R_1; R_2; R_3$  diametrlari bo‘yicha yoyilmasi keltirilgan.

Absissa o‘qi bo‘ylab esa vint chizig‘ining qadami /N/ qo‘yiladi.  $\gamma$  burchagi uchun

$$\operatorname{tg} g_1 = \operatorname{tg} w_1 = pD_1 / H \text{ deb} \quad (1)$$

yozish mumkin.

Bu yerda D - parma tashqi diametri mm da;

N - parma vintsimon chizig‘ini qadami

$$\operatorname{tg} \alpha_x' = \operatorname{tg} \alpha' (P + D_1) \quad (2)$$

$\alpha_x'$  - kesuvchi qirraning parma o‘qiga paralel tekislikda olingan ixtiyoriy nuqtasiga mos keluvchi oldingi burchak qiymati, gradda.

$\alpha' = 0_1 0_1$  - tekislikdagi oldingi burchak qiymati.

$D_x$  - ixtiyoriy tanlanilgan nuqtadagi parma diametri, mm da.

$D_1$  - parma tashqi diametri, mm da.

Oldingi burchak asosiy kesuvchi  $N_1 N_1$  - tekislikda quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$\operatorname{tg} \alpha_1 = \frac{\operatorname{tg} \alpha'}{\sin j}$$

bu yerda  $\alpha' = w : j$  - plandagi burchak.

Asosiy kesuvchi tekislikda oldingi burchakning quyidaga formula orkali hisoblanadi.

$$\operatorname{tg} \alpha_x = \left( \frac{\operatorname{tg} \alpha'}{\sin j} \right) \left( \frac{D_x}{D_1} \right) \quad (4)$$

Bu yerda  $\alpha' 0_1 0_1$  - tekislikdagi oldingi burchak, gradda.

$\alpha$  - parma cho‘qqisidagi burchakning yarimi, gradda

$D_x$  - parma diametri, mm da.

$D_1$  - parma sirtqi diametri, mm da.

Parmaning asosiy orqa burchaklari  $g_1; g_2; g_3$  parma orqa yuzasiga 1, 2, 3 nuqtalar orqali urinma qilib o‘tkazilgan urinma tekislik bilan o‘sha nuqtalardan parma o‘qiga tik qilib tekisliklar orasida joylashgan.


### *BURAMA PARMA PARAMETRLARINI O‘LCHASH*

Parma parametrlarini o‘lhash uchun quyidagi o‘lchov asboblaridan foydalilanadi: universal ugglomer; shtangeksirkul; mikrometrler; orqa burchak qiymatini o‘lchovchi maxsus asboblar.

Parma diametrleri shtangensirkul orqali o‘lchaniladi. Uning quyruq qismining diametrini o‘lhash orqali parma konus qismining qiyalik burchagini aniqlash mumkin,

$$\text{ya’ni } j_1 = \operatorname{arctg} \left[ \frac{(D_1 - D_2)}{2\ell} \right] \quad (5)$$

- parma cho‘qqisidan masofada o‘lchanilgan parma diametrarning teng qiymatdir. ( $\ell = 100 \text{ mm}$ )



**I-rasm**

Parma cho'qqisidagi burchak  $2\varphi$  - ning qiymatini o'lchash I-rasmda ko'rsatilgan.

Vint chizig'inining ko'tarilish burchagini parmani qog'ozda aylantirish tufayli hosil qilingan parma izi orqali aniqlanadi. Oldingi asosiy burchak bilan parma diametri orasidagi bog'lanish grafigini yasash uchun 4-chi formuladan foydalilanildi. Bu formula yordamida parmaning kesuvchi qirrasi bo'ylab o'lchash uchun tanlanilgan uchta nuqtaga mos keluvchi qiymatlar aniqlanadi:

1. Parma qirrasining eng quyi nuqtasi;
2. Parma o'qidan 2-3 mm masofada va parma diametrining o'rta razmeri uchun.

Asosiy kesuvchi tekislik bo'ylab nuqtadagi kesish burchagi  $d = 90^\circ - a_1$  ga teng bo'ladi.

Parma kesuvchi qirrasining har-xil nuqtasiga mos keluvchi orqa burchak qiymatini aniqlash uchun formular (4) asosida chizilgan grafikdan egri chiziqli urinma tekisliklar o'tkazib, X va U o'qlaridagi qiymatlar aniqlanadi (Rasm 8).

Izlanayotgan burchak qiymati quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$\operatorname{tg} a_x = (7,5 / D_x) \cdot (y_x x_1) \quad (7)$$

bu yerda 7,5 – doimiy son;

$u_1$  – ordinata,  $X_1$  – absissa, mmda,  $D_x$  – parma diametri, mmda. Formula (7) yordamida aniqlangan qiymatlar asosida parma orqa burchagining diametriga bog'liq holda o'zgarish grafigini yasaladi.

# LABORATORIYA ISHINING PROTOKOLI

## PARMA GEOMETRIK PARAMETRLARI VA KONSTRUKSIYASI

	Tajriba № 1		
	Parma materiali		
	Parma diametri mm da.		
	Vintsimon chizig‘i ning qiyalik burchagi $\Theta$ grad.		
	Ko‘ndalang qirra qiyalik burchagi $\Psi$ grad.		
	Kesuvchi qirralar orasıdagи burchak $2\phi$ grad.		
	Teskari konus burchagi. $\varphi_1$ gradda		
	Parma uchidagi o‘tish. Kare michda qismi qaliligi mm da		
	Ko‘ndalang qirra uzunligi a mm da.		
	Kesish burchagi $\beta$ gradda		
	Qattiqlik NRS		
	Orqa burchak qiymati (o‘lchanilgan chegara)		
	Oldingi burchak qiyatlari o‘lchanilgan chegara.		

## Laboratoriya ishi № 6

### Mavzu: Frezalarning turlari va konstruksiyasini o'rganish.

**Ish maqsadi:** Frezalarning tuzilishi, turlari va konstruksiyasi bilan tanishish.

#### **Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.**

1. Turli tipdagи frezalar komplekti (namuna);
2. Freza konstruksiyasining sxemasi;

#### **Ishni bajarish tartibi.**

1. Turli tipdagи frezalar komplekti.
2. Frezalarning vazifasiga ko'ra ishlatalishi bilan tanishiladi.
3. Freza qismlari diqqat bilan o'rganiladi va chizmasi chiziladi.
4. Frezaning asosiy elementlarini rangli qalamlarda (bir xil elementlari bir xil rangda) chiziladi.


#### **Umumiy ma'lumot**

Frezalar frezer stanoklarida quyidagi ishlarni bajarishda qo'llaniladi: Tekis yuzalarni homaki va tozalab frezlash; ortiqcha o'yish; metallarni bo'laklarga bo'lish; fason yuzalarga ishlov berish v.x.


Frezalarning eng oddiy tipii silindrik freza bo'lib, asosan tekis yuzalarni frezalashda ishlataladi.

Silindrik frezaning ishlash sxemasi **1-rasmida** ko'rsatilgan: freza 1 spravkaga shponka orqali kiydirilib, o'z o'qi atrofida aylanma harakat qiladi. Ishlov berayotgan detal 2 esa ilgarilanma harakat qiladi.

Kesish jarayonida frezaning bir marotaba o'tish vaqtida olinayotgan qatlam qalinligi t – harfi bilan belgilanadi va kesish chuqurligi deb yuritiladi.




Frezalarning turlari **2-rasmida** keltirilgan. Silindrik (*a*), torsaviy (*b*), frezalar bilan tekis yuzalarga ishlov berish, diskli (*g*, *d*) freza va yig‘ma diskli freza (*ye*) bilan ariqcha frezalash, kesib tushiruvchi (*j*) freza yordamida detallarni qirqish, barmoq freza (*k*) yordamida vallarda shponka ariqchasini frezalash, burchak freza (*v*) yordamida burchakli ariqchalar ochish, T-shaklli (*l*) freza yordamida ariqcha ochish, ikki burchakli (*m*, *n*) freza yordamida burchakli yuzalarga ishlov berish va modulli diskli (*o*) freza yordamida tishli g‘ildiraklarni frezalash mumkin.



**2-rasm. Frezalarning turlari**

Silindrik freza – silindrik formadagi tana qismidan iborat bo‘lib, sirtqi yuzasidan qirindi chiqish uchun o‘yilgan vintsimon oriqchalardan va kesuvchi qirrali tishlar o‘yilgan bo‘ladi (**3-rasm**). Kesuvchi qirralarni vintsimon qilib o‘yilishi frezaning tekis ishlashini ta’minlaydi va urilib, tebranishni kamaytiradi.

Kesuvchi qirraning qiplik burchagi  $\omega$  - harfi bilan belgilanib freza o‘qi bilan vintsimon liniyaga o‘rinma qilib o‘tkazilgan tekislik orasidagi qiymat bilan xarakterlanadi.



**3-rasm**

**Ish xaqida xisobot.** Xisobotda bajariladigan ishdan maqsad, keskichlarning turlari yoziladi, sxemalari chiziladi.

## Laboratoriya ishi № 7

### Mavzu: Frezalarning geometrik parametrlarini o‘rganish.

**Ish maqsadi:** Frezaning geometrik parametrlarini o‘rganish va o‘lchash.

#### **Ishni bajarish uchun zaruriy asbob-uskuna va materiallar:**


1. Turli tipdagi frezalar komplekti;
2. Shtangensirkul;
3. Universal burchak o‘lchagich;
4. Chizma kurollari;
5. Rangli kalam komplekti.

#### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Frezaning qismlari diqqat bilan o‘rganiladi va chizmasi chiziladi.
2. Frezaning burchaklari bilan tanishib, ularning qiymati universal burchak o‘lchagich yordamida aniqlanadi va jadvalga yoziladi.

#### **Umumiylumot**

Silindrsimon va torets frezalarning kesuvchi qismini geometrik parametrlari quyidagi 1-rasm (a, b) da ko‘rsatilgan.



**1-rasm. Frezaning geometrik parametrlari**


Oldingi asosiy burchak  $\alpha$  asosiy kesish  $NN$  tekisligida, asosiy orqa burchak esa freza terets tekisligida o‘lchaniladi.

Silindrik frezaning asosiy qismi vint chizig‘ining qadami N /mm/ dan iborat bo‘lib, quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi: (2-rasm).

$$H = \frac{\pi D}{4} \cdot C \operatorname{tg} \omega \quad (1)$$

bu yerda: D – freza diametri, mm da.

$\omega$  - vint chizig‘ining ko‘tarilish burchagi, gradda.



**2-rasm**

Asosiy oldingi burchakni quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\operatorname{tg} \alpha = \operatorname{tg} \alpha_1 \cdot \cos \omega \quad (2)$$

terets freza uchun

$$\operatorname{tg} \alpha = \operatorname{tg} \alpha_1 \sin j + \operatorname{tg} \alpha_2 \cos j \quad (3)$$


Kesish burchagi  $d = 90 - \alpha$  - orqali aniqlanadi.

### **FREZA GEOMETRIK PARAMETRLARINI O‘LCHASH**

Frezalarning geometrik va konstruktiv elementlarini o‘lchashda, o‘lchash lineykalari, universal burchak o‘lchagich, shtangensirkul va freza torets tekisligidagi orqa va oldingi burchaklarni o‘lhash qo‘llaniladigan asboblardan

foydalanimi.

Quyidagi 3-rasmida Babsinitser konstruksiyalangan abob yordamida freza orqa burchagini o‘lhash ko‘rsatilgan.



**3-rasm.**

### O‘lhash quyidagi tartibda olib boriladi.

1. Frezaning kesuvchining qirralari 1 va 2 ga o‘lhash asbobini shunday joylashtirish kerakki bu holda, o‘lchanilayotgan tishning tigi planka 3 va tig 6 larning quyilishi tufayli hosil bo‘lgan burchak uchiga tiralib, asbobning torets qismi freza o‘qiga tik yo‘nalgan bo‘lishi kerak;
2. Asbobning xarakterlanuvchi qismi 4 ni asbob o‘lhash tekisligi 3 freza orqa yuzasiga tiralguncha buraladi.
3. 4 – sektoring gradusli shkalasidan oldindi burchak qiymati hisoblaniladi.

Bu qiymat shkaladagi nol qiymatga va 5 shkaladagi freza tishlar soniga mos bo‘lgan shtrixlar orasidagi miqdordan iborat bo‘ladi.

*Masalan*, 3-rasm (a) da ko‘rsatilgan.

$$\alpha_1 = 26 \text{ Freza tishlari: } z=18$$

### Freza oldindi burchagini o‘lhash quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Ikkita yonma – yon joylashgan freza tishlarining qirrasiga o‘lhash asbobini shunday joylashtirish kerak – ki, bu holda frezaning kesuvchi qirrasi o‘lhash tekisligida tig‘ 1 va planka 2 lar hosil qilgan burchakka tiralib, asbob torets qismi esa freza o‘qiga tik yo‘nalgan bo‘lishi kerak (3-rasm (b));
2. Asbob suriluvchi sektorini (3) o‘lhash tig‘i 1 freza oldindi yuzasiga tiralguncha olib kelinadi;
3. 5 – sektor shkalasidan oldindi burchak qiymati aniqlaniladi, bu qiymat gradus shkala 3 – chi shtrix bilan 4 shkaladagi freza tishlar soniga mos keluvchi shtrix orasidagi yoy miqdori bilan xarakterlanadi, ya’ni 3-rasm (b) dan ko‘rinadiki  $z = 18$  bo‘lgan freza uchun  $\gamma = 10^\circ$  ga teng ekan.

Asosiy kesish tekisligida freza oldingi burchagi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\operatorname{tg} a = \operatorname{tg} a_1 \cdot \cos w$$

Kesish burchagi esa:  $d = 90^\circ - a$  ga teng bo‘ladi.

# LABORATORIYA ISHINING YAKUNI. FREZA GEOMETRIK PARAMETRLARI VA KONTRUKSIYASI

Tajribা №	
Freza tipi	
Freza qattiqligи NKS	
Freza diametri D mm da	
Freza tishlar soni $Z$	
Freza kengligи L-mmда	
Vint chizig‘ining kichik burchagi, N grad	
Orqa burchagi $\alpha$ - grad	
Oldingi burchak $\alpha$ - gradda	
O’tkirlanish burchagi $\beta$ - gradda	
Kesish burchagi gradda	
Hisoblash formulasи	
Freza materialи	
Muqaddima	

## Laboratoriya ishi № 8

### Mavzu: Qirindining kirishuvini o'lhash va uning miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish.

**Ish maqsadi:** Yo'nish jarayonida kesib olinayotgan qatlamning deformatsiyalanishini kuzatish. Qirindi turlarini aniqlash, qirindining kirishuviga kesish tezligi, surish kattaligi va oldingi burchak qiymatining o'zgarishini ta'sirini tekshirish.

#### Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.


1. 1K62 rusumli tokarlik-vintqirqish stanogi;
2. Tokarlik keskichlari;
3. Kesib ishlanuvchi zagotovka;
4. Shtangensirkul.

#### Ishni bajarish tartibi.

1. Kesib ishlanuvchi zagotovka stanokning patroniga mahkamlanadi.
2. Qanday vazifa qo'yilganiga qarab keskich tanlanadi va stanok sozlanadi.
3. Stanokda qirqish, yo'nish ishlari bajariladi.
4. Yo'nish vaqtida ajralgan qirindi turlari va qirindining kirishuvchanligi aniqlanadi.

#### Umumiylumot

Materiallarni kesib ishlash jarayonida hosil bo'layotgan issiqlik miqdori, kontakt yuzalari orasidagi ishqalanish va kesish kuchlari ta'sirida kesib olinayotgan qatlam elastik va plastik deformatsiyalanadi, ya'ni siqiladi. Siqilish jarayoni cho'zilish jarayoniga o'xshash bo'lish qonuniyatlarini cho'zilish diagrammalari orqali kuzatish mumkin. (**1-rasm**)



Diagrammadan ko‘rinadiki, oa – oraliqda namuna elastik deformatsiyalanadi.

Bu deformatsiya qaytma xarakterga ega bo‘lib, kuch ta’siri olingandan keyin namuna o‘zining avvalgi holatini egallaydi.

Namunaga ta’sir etayotgan kuch miqdorining ortib borishi bilan namuna plastik deformatsiyalana boshlaydi. Kuch miqdori ma’lum qiymatga yetgandan keyin uning qiymati ortmasa ham namuna o‘z – o‘zidan o‘zaya boshlaydi. (as). Bu hol elastik deformatsiyani plastik deformatsiyaga aylanganidan dalolat beradi, natijada namuna uziladi, ( $m - nuqta$ ).

Plastik deformatsiyalish jarayoni material qatlamlarini bir – biriga nisbatan siljish tekisligida surilishi oqibatida yuzaga keladi. Siqish jarayonida esa yuqorida bayon etilgan tartibda namunaning qisqarishi namoyon bo‘ladi.

Kesish jarayonida kesuvchi asbob bilan qirindi orasidagi o‘zaro ta’sirni siqish jarayonidagi press bilan namuna orasidagi bog‘lanish bilan taqqoshlash mumkin.

V.D.Kuznetsov, V.A.Krivousovlar kesish jarayonida qirindi ajralish qonuniyatları erkin siqish qonuniyatları erkin siqish qonuniyatlariga o‘xshash bo‘lib, olinayotgan qatlamning elastik va plastik deformatsiyalishi mavjud ekanligini isbotlaganlar.


Y.G.Usachev metallografik usul yordamida kesish zonasida sodir bo‘luvchi plastik deformatsiyalish jarayonini chuqurroq kuzatishga muvofiq bo‘ladi.

Plastik deformatsiya deformatsiyalangan zonani puxtalanishiga olib keladi. Puxtalanish jarayoni deformatsiyalangan qatlamni qattiqligini ortishi bilan xarakterlanadi.

### QIRINDI HOSIL BO‘LISH JARAYONI

I.A.Time, kesish jarayonini kuzatish oqibatida kesish – kesib olinayotgan qatlam elementlarini asta – kesin uzlusiz siljish jarayonidan iborat ekanligini aniqlagan.

Quyidagi 2-rasmda qirindi elementlarining hosil bo‘lishini ifodalovchi sxema ifodalangan.



**2-rasm. Qirindi hosil bo‘lish jarayoni**

Boshlang'ich davrda keskichga R – kuch qo'yilishi bilan avvalo keskich bilan kontakt bo'lgan yuza deformatsiyalana boshlaydi.


Deformatsiyalanish jarayoni maksimal qiymati yetganda kesilayotgan qatlam AB tekislik bo'lab ko'cha boshlaydi va qirindi elementini tashkil qiladi. Qirindining kesish jarayonidagi surish yo'nalishini ko'chish yoki siljish tekisligi deb yuritiladi.

Bu tekislik kesish tekisligi  $\beta$  burchakni tashkil etadi va bu burchakka siljish tekisligi deyiladi. Qirindi elementining hosil bo'lish jarayonida kesish kuchining miqdori ortadi, u ko'chganda esa kamayadi. Bu hodisa keskichgi va stanok qatlamlariga ishlov berilayotgan material tomonidan ta'sir etayotgan miqdorini o'zgarib turishiga olib keladi. Qirindining siljish burchagi  $\Delta=180^\circ-\beta$  atrofida bo'ladi.  $145 - 155^\circ$ .

Oldingi burchakning qiymatini musbat yoki manfiy bo'lishiga qarab burchak  $135 - 170^\circ$  oralig'ida bo'lishi mumkin. Y.G.Usachev o'tkazgan kuzatishlar natijasida qirindining o'zida ham umumiy ko'chish tekisligining yo'nalishdan farq qiluvchi tekislikda surishish sodir bo'lishini aniqladi. Bu tekislik kesish tekisligiga o'tkazilgan urinma  $\beta_2$  – burchak hosil qiladi.

$$(\beta_2 < \beta_1 < 90^\circ)$$

A.M. Rozenberg kesilayotgan qatlam qalinligini ortib borishi bilan  $\beta_1$  va  $\beta_2$  larning qiymatlarini ortib borishi va  $\beta_2 - \beta_1$  bilan burchak qiymatlarining ayiirmasi doimo  $18 - 20^\circ$  oralig'ida bo'lishini aniqlanadi.



## ***QIRINDI TURLARI***

Kesib ishlash jarayonida ishlov berilayotgan materialning turiga, kesish rejimlariga, ishlash sharoitiga bog‘liq holda quyidagi turlarga bo‘linadi: elementli, uvak, tekis uzlusiz va siniq.

Elementlardan hosil bo‘lgan qirindi (rasm 3) qattiq, qovushqoq bo‘lмаган materiallarni kichik kesish tezliklarida kesish jarayonida hosil bo‘ladi. Uvak qirindi – po‘latlarni o‘rtacha tezliklarda kesishda hosil bo‘ladi. Bu tipdagи qirindi o‘zaro mustahkam yopishgan ayrim – ayrim elementlardan iboratdir. Qirindining kesuvchi asbob oldingi yuzasiga qaragan tomoni tekis, qarama – qarshi tomoni esa notejis baland – pastliklar ko‘rinishiga egadir.

Tekis uzlusiz qirindi – mustahkamligi yuqori bo‘lмаган, qovushqoq materiallarni va yuqori tezliklarda po‘latlarni kesish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu qirindi vintsimon lenta yoki yassi o‘ram shaklida bo‘ladi.

Siniq qirindi – qattiq va mo‘rt materiallarni (cho‘yan, bronza) normal sharoitlarda kesish vaqtida hosil bo‘lib, bir – biri bilan kuchsiz ilashgan yoki alohida – alohida bo‘lakchalardan iborat.

## ***QIRINDINING KIRISHUVI***

Materiallarni kesib ishlash jarayonida hosil bo‘luvchi elastik va plastik deformatsiyalanish ta’sirda kesib olinayotgan qirindi va ishlov berilayotgan yuzalarning fiziko – mexanikaviy holatlarini o‘zgarishi namoyon bo‘ladi.

Deformatsiyalangan qatlamlari qisimning sxematik ko‘rinishi rasm 3 da ifodalangan. Kesilayotgan qatlamlarning plastik deformatsiyalanish oqibatida kesib olinayotgan qatlami (qirindi) uzunligi  $l_1$  bu qatlami kesib olingan yuza uzunligi  $l$  ga nisbatan qisqa bo‘ladi, ya’ni  $l_1 < l$  (rasm 3). Qirindining qisqarishiga qirindining kirishuvi deb yuritiladi va cho‘kish koeffitsiyenti – R bilan xarakterlanadi:  $R = \frac{l}{l_1}$

Cho‘kish koeffitsiyenti doimo  $R > 1$  bo‘ladi, chunki  $l > l_1$ . Bu koeffitsiyent qiymati bir necha faktorlarga bog‘liq bo‘lib, ayrim hollarda 6 – 8 ga teng bo‘lishi mumkin. Plastik deformatsiyalanish jarayonida metall hajmi o‘zgarmaydi, shuning uchun kesib olingan qirindi hajmi kesilib olinishi kerak bo‘lgan qatlami hajmiga teng bo‘lib, uning uzunligi qisqarishi bilan eni kengayadi. Qirindining ko‘ndalang kesim yuzasining  $f_c$ , kesilayotgan yuza maydoni  $f$  – ga nisbati, qirindining ko‘ndalang cho‘kish koeffitsiyenti deyiladi va quyidagicha xarakterlanadi, ya’ni:

$$R = \frac{f_c}{f} = a_1 b_1 / ab$$

bu yerda:  $a_1$ ,  $b_1$  – qirindi eni va kengligi, mm da;

$a$ ,  $b$  – qirindi kesib olinayotgan yuza eni va kengligi, mm da.

Kesib olinishi kerak bo‘lgan qatlami va qirindi hajmlarini tenglashtirish natijasida bo‘ylama ko‘ndalang cho‘kish koeffitsiyentlarini bir – biriga tengligini ko‘rish mumkin. Qirindisining cho‘kish koeffitsiyentini ikki turli metod bilan aniqlash mumkin:

$$lf = l_1 f_2 \text{ yoki } \frac{l}{l_1} = \frac{f}{f_1}$$

1. Solishtirish metodi,
2. Tortish metodi.

Solishtirish metodi – olingen qirindi uzunligini u kesib olingen yuza uzunligi bilan taqqoslashga asoslangan. Bu holda qirindining bo‘ylama cho‘kish koeffitsiyenti  $K = \frac{l}{l_1}$  ga teng bo‘ladi.

Tortish metodi – o‘lchash murakkab bo‘lgan formadagi qirindi hosil bo‘lish jarayonlarida qo‘llaniladi. Bu usulda qirindining biror tekisroq qismi ajratib olinib uning uzunligi va massasi aniqlanadi. Ishlov berilayotgan materialning zichligi bilgan holda qirindining ko‘ndalang kesim yuzasi hisoblanadi.

$$f_k = \frac{G}{g \cdot l_k}$$

bu yerda:  $G$  – qirindi massasi,

$\gamma$  - material zichligi,

$l_k$  - qirindi uzunligi.

Qirindining ko‘ndalangiga cho‘kish koeffitsiyentini hisoblash formulasidan foydalangan holda:

$$K = \frac{f_k}{f} = \frac{G}{g \cdot l_k \cdot a \cdot b}$$

Qirindining cho‘kish koeffitsiyenti plastik deformatsiyalanishni miqdorini belgilovchi birlik sifatida qabul qilish mumkin.

$$\operatorname{tg} b_1 = \frac{\cos g}{K \cdot \sin g}$$

bu yerda:  $\beta_1$  – ko‘chish burchagi,

$K$  – qirindining cho‘kish koeffitsiyenti,

$\gamma$  - kesuvchi asbobning oldingi burchagi.

Qirindining cho‘kishga qancha kichik bo‘lsa, kesish jarayonida plastik deformatsiyalanishi shuncha kam bo‘ladi. Demak, kesish jarayoni qulay sharoitda boradi, ish miqdori kamayadi.

Qirindining kirishuvi yana ishlov berilayotgan materialning fizika – mexanikaviy xossasi, kesuvchi asbobning geometrik parametrlari, kesish rejimlari, qo‘llanilayotgan sovutish – moylash suyuqliklariga ham bog‘liqdir.

## **QIRINDINING CHO‘KISHGA KESISH REJIMINING ELEMENTLARINING TA’SIRI**

Quyida biz kesim tezligini o‘zgarishini qirindining cho‘kishga ta’sirini tortish metodi bilan aniqlashni ko‘rib chiqamiz. Tekshirilishi kerak bo‘lgan qirindidan uzunligi  $l$  (mm) bo‘lgan biror bo‘lakni ajratib olinib uning og‘irligi –  $g$  (g) tortiladi.

Qirindining og‘irligi  $q$  – bilan uning uzunligi  $l$  orasida quyidagiga bog‘lanish mavjuddir:

$$q = \frac{F_\phi l \cdot p_0}{100}$$

bu yerda:  $r_0$  – zagotovka materialining zichligi  
(po‘latlar uchun  $r_0=7,8$  g/sm<sup>3</sup>)

$$F_\phi = \frac{100g}{l \cdot p_0}$$

Qirindining cho‘kish quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$X_e = \frac{F_\phi}{F_{vp}} = \frac{1000g}{l \cdot p_0 t S}$$

$\xi_{ye}$  – ning qiymatini hamma sharoitlar uchun aniqlanib, qirindining kirishuviga kesish tezligini  $\xi_{ye}=f(v)$ . Kesish burchagini  $\xi_0=f(\delta)$ , surish kattaligini  $\xi_0=f(S)$  o‘zgarishini ta’sirini grafik orqali ifodalaniladi.

## LABORATORIYA ISHINING QARORI

## Laboratoriya ishi № 9

### **Mavzu: Kesish jarayonida xosil bo‘lgan issiqlikni o‘lchash va issiqlik miqdoriga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish.**

**Ish maqsadi:** Kesish zonasida hosil buluvchi issiqlik miqdoriga kesish chuqurligi, kesish tezligi va surish kattaligini o‘zgarishini ta’sirini kuzatish.

#### **Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.**

1. 1K62 rusumli tokarlik-vintqirqish stanogi;
2. Tokarlik keskichlari;
3. Kesib ishlanuvchi zagotovka;

#### **Ishni bajarish tartibi.**

1. Kesib ishlanuvchi zagotovka stanokning patroniga mahkamlanadi.
2. Qanday vazifa qo‘yilganiga qarab keskich tanlanadi va stanok sozlanadi.
3. Stanokda qirqish, yo‘nish ishlari bajariladi.
4. Yo‘nish vaqtida ajralgan issiqlik miqdori termopara usuli bilan aniqlanadi.

### **KESISH SHAROITIDA HOSIL BO‘LUVCHI ISSIQLIK MIQDORI VA UNGA KESISH REJIMLARINI TA’SIRI**

Metallarni kesib ishlash jarayonida sodir bo‘luvchi elastik va plastik deformatsiyalanish qirindi bilan keskich oldingi yuza orasidagi, zagotovka bilan keskich orqa yuzasi orasidagi ishqalanish ta’sirida ma’lum miqdorda issiqlik hosil bo‘ladi. Bu hosil bo‘lgan issiqlik kesuvchi asbobning, qirindining va ishlov berilayotgan detalning qizishiga olib keladi.

Kesish jarayonida hosil bo‘layotgan issiqliknинг miqdori (kkal mi) asosan kesish kuchi  $R_2$  va kesish tezligining qiymatiga bog‘liq bo‘lib, tubandagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = (P_z \cdot v)427 \quad (1)$$

Issiqlik miqdoriga kesish jarayonini elementlarini ta’sirini hisobga oluvchi formula tubandagi ko‘rinishga ega:

$$Q = C_0 \cdot v^x \cdot t^y \cdot s^z \quad (2)$$

Bu yerda:  $S_0$  – zagotovka materialini keskich materialini va kesish sharoitini hisobga oluvchi, koeffitsiyent;

$v$  – kesish tezligi, m/min;

$t$  – kesish chuqurligi, mm;

$s$  – curish kattaligi, mm/ayl;

$x, y, z$  – daraja ko‘rsatkichlari, u bu ko‘rsatkichlarining qiymati ishlov berilayotgan material va keskich materialiga va kesib ishslash


sharoitga bog'liq.

$$Q_1 = C_{Q_1} \cdot v^x \quad (3)$$

$$Q_2 = C_{Q_2} \cdot t^y \quad (4)$$

$$Q_3 = C_{Q_3} \cdot s^z \quad (5)$$

Darajani ko'rsatkichlarning tenglamalari oddiy kordinatalar sistemasida egri chiziq, ikkilangan logorifmik setka (1-rasm) da esa



## XISOBLASH

Issiqlik miqdoriga kesish rejimlarini o'zgarishini ta'sirini tekshirish uchun tubandagi tajribalarni o'tkazish zarur. Kesish rejiminining elementlaridan ikkitasini doimiyligini ta'minlagan holda uchinchisini o'zgartirish orqali kesish jarayoni amalga oshiriladi va hosil bo'layotgan issiqlik miqdoirini o'lchab boriladi. Olingan natijalar asosida xaroratni o'zgarishi grafigini grafigini /chizig'i/ kordinatlar sistemasida ifodalanadi. Hosil bo'lgan chiziqning koordinata o'qiga nisbatan olingan burchak tenglamasi qiymat jihatidan daraja ko'rsatkichlariga teng bo'ladi, ya'ni:

$$\operatorname{tg} \alpha_1 = x_1 \operatorname{tg} \alpha_2 = y; \quad \operatorname{tg} \alpha_3 = z$$

X, U, larning qiymatini aniqlagandan keyin tajriba natijasida aniqlangan issiqlik miqdoriga asoslanib, - koeffitsiyentini qiymati aniqlanadi.

$$C_Q = \frac{Q}{v^x \cdot t^y \cdot s^z};$$

Ish protokoliga formula 2 orqali aniqlangan issiqlik miqdori yoziladi.


## TAJРИBA О'TKAZISH JARAYONIDA FOYDALANUVCHI QURILMALAR.

Kesib ishslash jarayonida hosil bo'layotgan temperatura miqdorini o'lchashni tabiiy termopora metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu metodda termopora elementlari sifatida kesib ishlatilayotgan material va kesuvchi asbob keskich qismining materialidan foydalaniladi.

Umumiy bitta nuqtasiga ega bo'lgan ikki xil materialga termopora material deb ataladi.

Termoporating harorati o'lchanishi kerak bo'lgan muxitga joylashtiriladi va zanjirga millivaqtlar o'lhash orqali muayyan muhit harorati to'g'risida fikr yuritiladi. Millivaqtlar yordamida aniqlangan qiymatdan foydalanib haqiqiy harorat miqdorini aniqlash uchun termoporo torirovka qilinadi.

Torirovka qilish jarayoni  $0^{\circ}\text{C} = f(E_{ml})$  orasidagi bog'lanishni xarakterlovchi grafikni ko'rishdan iboratdir. (2-rasmga qarang).




2-rasm. Issiqlik miqdorini o'lhash sxemasi

Tubanda (3-rasm) tabiiy termoporo usuli bilan issiqlik miqdorini o'lhash sxemasi ko'rsatilgan.

Bu yerda: 1 – golvometr yoki millivoltmetr, 2 – stoyka, 3 – o'zak, 4 – konusli teshigi bor lotun halqa, 5 – o'tkazgichlar (mis), 6 – zagotovka, 7 – keskich, 8 – keskichni izolyatsiya qiluvchi material.

Sxemadan ko'rindiki keskich va zagotovka stopon korpusidan tok o'tkazmaydigan material bilan ajratilgan (izolyatsiya qilish).







3-rasm. Tabiiy termoporo usuli bilan issiqlik miqdorini o'lhash sxemasi


Laboratoriya ishini bajarish jarayonida kesish rejimlari ( $v$ ,  $s$ ,  $t$ ) o'zgartirish bilan olingan ma'lumotlar  $0^{\circ}\text{C} = f(v, s, t)$  bog'lanishni ifodalovchi grafiklar chiziladi.

Chizilgan grafiklarga asoslanib xulosa chiqariladi.


Laboratoriya ishi uchun grafiklar:








$\rho$	40	110	180	40	200	220
$S$	0.25	0.45	0.75	1.0	1.25	1.5



$\rho$					
$V$					

$$\rho_{\text{Ge}} = f(v)$$



$\rho$	70	130	220	310	360
$\delta$	0.11	0.22	0.60	1.2	1.0

## Laboratoriya ishi № 10

### **Mavzu: Kesuvchi asboblarning yeyilishini o‘rganish.**

**Ish maqsadi.** Kesuvchi asbobning yeyilishini kuzatish keskichning yeyilish burchaklarini o‘rganish.

#### **Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.**

1. 1K62 rusumli tokarlik-vintqirqish stanogi;
2. Tokarlik keskichlari;
3. Kesib ishlanuvchi zagotovka;

#### **Ishni bajarish tartibi.**

1. Kesib ishlanuvchi zagotovka stanokning patroniga mahkamlanadi.
2. Qanday vazifa qo‘yilganiga qarab keskich tanlanadi va stanok sozlanadi.
3. Stanokda qirqish, yo‘nish ishlari bajariladi.
4. Yo‘nish davrida keskichning yeyilishi kuzatiladi.

#### **Umumiylumot**

Kesuvchi asbobning yeyilish keskich bilan ishlanilayotgan zagotovka orasidagi kontakt yuzalarda hosil bo‘luvchi murakkab jarayondan iborat.

Ishlov berish jarayonida kesuvchi asbobning yeyilishi kesuvchi asbob geometriyasiga, uning oldingi va orqa yuzasidan holatini o‘zgarishga, kesib ishlanilayotgan material yuzasini elastik va plastik deformatsiyalanishga, ishlov berilayotgan yuza sifatiga va kesish zonasidagi hosil bo‘layotgan issiqlik miqdoriga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Kesuvchi asboblari kesish sharoitiga bog‘liq holda quyidagi ko‘rinishlarda yeyilishi mumkin: adgeziyali, abreziv, abreziv – ximiyaviy, diffuzion.

**Adgeziyali yeyilish** – bu turli yeyilish, kesish jarayonida keskichning oldingi va orqa yuzalarini qirindi va zagotovkaga ishqalanish tufayli sodir bo‘luvchi adgeziya ta’sirida kesich yuzalaridan mayda – mayda zarrachalarini yo‘nalishi natijasida hosil bo‘ladi.

**Abreziv yeyilish** – bu yeyilishi kesuvchi asbob tarkibidagi mavjud bo‘lgan qattiq zarrachalarni keskichning ishqalanish yuzalarini tirlashi tufayli hosil bo‘ladi. Bu holda kesich materiali tarkibidagi har bir qattiq qo‘shilmani kichik – kichik kesich sifatida faraz qilish mumkin.

Bu ko‘rinishdagi yeyilishga ishlov berayotgan material tarkibidagi karbidlar, oksidlar, qo‘yma qobig‘lar, uglerodsizlangan qatlamlar katta ta’sir ko‘rsatadi.

Abraziv yeyilish miqdoriga ishlov berilayotgan muhit ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan: xlor – uglerodli muhitda kesib ishlash jarayonida o‘simta hosil bo‘lmaydi, lekin kesich orqa yuzasidan obraziv zarrachaning iziga o‘xshash tirlangan chiziqlarni ko‘rish mumkin. Bu izlar ximiyaviy aktiv muhit ta’sirida

bo'shashgan kesuvchi asbob yuzasidagi yupqa okis plenkaning to'xtovsiz ternalishining oqibatidir. Bu plenkalar tarkibi temirning xlorli birikmasidan iborat bo'lib, oson qirqiladi. Bu yeyilishga ximiyaviy obraziv yeyilishi deb yuritiladi.

**Diffuzion yeyilish** – yuqori temperaturalarda keskich materiali bilan keskich orasidagi o'zaro diffuziya ta'sirida yuzaga keladi.

Kesuvchi asbobning yeyilishi kesish sharoitiga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lishi mumkin. (**1-rasm**) Amalda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. Kesuvchining asbob faqat orqa yuzasi bo'ylab yeyiladi. (1-rasm (a)). Bu xol mo'rt materiallarni yo'nish kesish chuqurligi  $t = 0,1$  dan kichik bo'lган sharoitda namoyon bo'ladi.

Bu ko'rinishdagi yeyilish keskich orqa yuzasidagi yeyilgan maydon kengligi bilan ifodalanadi.

2. Kesuvchi asbob asosan oldingi yuzasi bo'ylab yeyiladi. (1-rasm (b)).


Bu ko'rinishdagi yeyilish qovushqoq materiallarni 9,5 mm qalinlikda kesish jarayonida hosil bo'ladi.

Keskich oldingi yuzasidagi yeyilish parametri yeyilish chuqurligi  $h_A$ , kengligi  $b$ , uzunligi  $\ell_A$  va bog'lovchi qism bilan xarakterlanadi. (1-rasm (v)).

Oldingi yuza bo'ylab yeyilish, asosan o'simta mavjud bo'lganda sodir bo'lib, f – ning qiymati nolga teng bo'lganda to'la yemiriladi.

3. Bir vaqtida keskichning oldingi va orqa yuzasi bo'ylab yeyilishi (1-rasm (b)) plastik materiallarni 0,1 – 0,5 mm qalinlikda kesish jarayonida hosil bo'ladi.

4. Plastmassalarni, qovushqoq materiallarni tozalab yo'nishda keskich kesuvchi qirrasi ma'lum radiusli formada yeyiladi. (1-rasm (a, b, v)).



**1-rasm. Kesuvchi asbobning yeyilish zonalari**

Kesuvchi asbobning yeyilishi bilan uning ishlash vaqtini orasidagi bog'lanish **2-rasmda** ifodalangan.

Rasmdagi grafikdan ko‘rinadiki kesuvchi asbobning vaqt birligi ichida yeyilishi III davrga bo‘linadi.

**I – davr.** boshlang‘ich yeyilish davri. Bu davrda asosan keskich yuzalaridagi notekisliklar yeyilib tekislanadi. Bu davrda keskich yuzasi qanchalik tekis bo‘lsa, egri chiziqning ko‘tarilish burchagi shuncha kichik bo‘ladi.

**II – davr.** normal yeyilish davri. Bu davrda yeyilish egri chizig‘ini asta – sekin keskichning ishlash vaqtiga proporsional ravishda ko‘tarilib borishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi davrdagi yeyilish chizig‘ini quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin.

$$h = kt + h_0$$

bu yerda:  $h$  – yeyilish o‘lchami, mm da;


$k = \operatorname{tg} \alpha$  - burchak koeffitsiyenti;

$\alpha$  - to‘g‘ri chiziq bilan absissa o‘qi orasidagi burchak:

$t$  – keskichning ishlash vaqt;


$h_0$  - boshlang‘ich yeyilish, mm da.

**III – davr.** katostrofik yeyilish davri. Bu davrda kesish temperaturasi birdaniga ortib ketadi va keskichning yeyilishi jadallashadi. Natijada qisqa vaqt ichida keskich kesuvchi qismi butunlay yemiralidi.



**2-rasm.** Kesuvchi asbobning yeyilishi bilan uning ishlash vaqtি orasidagi bog‘lanish

Kesuvchi asbobning yeyilishi oldingi yuzadagi o‘yiq o‘lchamlari yoki orqa yuzadagi faska  $h_3$  qiymati bilan o‘lchaniladi (**3-rasm**).



**3-rasm.** Keskichning o‘lchamli yeyilishi

Ishlov berilayotgan materialga nisbatan normal yo‘nishdagi yeyilish qiymati keskichning o‘lchamli yeyilishi deb yuritiladi, bu yeyilish II – II kesim tekisligida o‘lchanadi va keskichning zagotovka yuzasi bo‘ylab bosib o‘tgan masofasi bilan xarakterlanadi (kesish masofasi  $L$  mm da). Kesish masofasini surish kattaligiga ko‘paytmasi ishlov berilgan yuza hajmini ifodalaydi, ya’ni:

$$U = S \cdot (L)$$

**Ish haqida xisobot.** Xisobotda bajariladigan ishdan maqsad, keskichning yeyilish turlari yoziladi, yeyilish grafiklari chiziladi.

## Laboratoriya ishi № 11

### **Mavzu: Kesuvchi asbobning yeyilishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish.**

**Ish maqsadi.** Kesuvchi asbobning yeyilishiga ta'sir etuvchi faktorlarni o'rganish.

#### **Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.**

1. 1K62 rusumli tokarlik-vintqirqish stanogi;
2. Tokarlik keskichlari;
3. Kesib ishlanuvchi zagotovka;

#### **Ishni bajarish tartibi.**

1. Kesib ishlanuvchi zagotovka stanokning patroniga mahkamlanadi.
2. Qanday vazifa qo'yilganiga qarab keskich tanlanadi va stanok sozlanadi.
3. Stanokda qirqish, yo'nish ishlari bajariladi.
4. Yo'nish davrida keskichning yeyilishi kuzatiladi.

### **KESISH JARAYONIDAGI FAKTORLARNI KESKICH YEYILISHIGA TA'SIRI**

Kesuvchi asbobning yeyilishga quyidagi faktorlar ta'sir ko'rsatadi:

1. Keskich va ishlov berilayotgan material turi;
2. Kesish rejimining elementlari;
3. Kesuvchi asbobning geometriyasi;
4. Kesuvchi asbobning yuza tozaligi;
5. O'simta;
6. Sovutish va moylash suyuqliklari.

Qovushqoq materiallarni kesib ishlashda keskichlar orqa yuzasiga nisbatan oldingi yuzasi bo'yicha ko'proq yeyila boshlaydi. Ishlov berilayotgan materialning mustahkamligi ortib boradi. Natijada kesuvchi asbobning yeyilishi ortadi.

Kesish rejimlari keskich yeyilishiga quyidagicha ta'sir etadi:

Kesish tezligi ortib borishi bilan keskichning yeyilishi ham ortib boradi. Surish kattaligi va kesish chuqurligi keskich yeyilishiga tezlikka ortib borishi bilan kontakt yuzalarda hosil bo'luvchi harorat miqdori surish kattaligi va kesish chuqurligini ortishiga nisbatan jadalroq orta boshlaydi.

Yuqori tezliklarda kesish jarayonida keskich oldingi yuzasida o'simta hosil bo'lmashligi oqibatida keskichning kesish chuqurligini miqdoriga bog'liq holda oldingi (qirindi qalin bo'lganda) yoki orqa yuzasi (kichik qalinlikda) bo'yicha yeyila boshlaydi. Bunga sabab qirindi qalinligi ortib borishi bilan keskich oldingi

yuzasiga ta'sir etayotgan bosim natijasida harorat ortib boradi, bu esa o'z navbatida bu esa bo'yicha yeyilish ortishiga olib keladi.


Kesuvchi asbobning geometrik parametrlari keskich yeyilishiga quyidagicha ta'sir etadi:

Oldingi burchak qiymatini ma'lum chegaragacha ortib borishi bilan keskich yeyilishi sustlashib boradi, burchak qiymatini yanada ortib borishi keskich ishchi qismini ko'ndalang kesim yuzasini kengayishi natijasida kontakt yuzalarda haroratning ortishi hisobiga yeyilish yana orta boshlaydi.

Keskich orqa burchagini kamayib borishi keskich orqa yuzasi bilan zagotovka orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti ortishi natijasida keskichning yeyilishini jadallanishiga olib keladi.

Kesuvchi asbobning yuza tozaligi ortib borishi bilan uning yeyilishi kamayib boradi, bunga sabab keskich bilan qirindi va zagotovka kontakt yuzalaridagi ishqalanish koeffitsiyentini kamayishidir.

Keskich oldingi yuzasidan hosil bo'luvchi o'simta keskichni orqa yuzasi bo'yicha yeyilishini kamaytiradi, ammo oldingi yuzasida hosil bo'ladigan o'yiq parametrlarini ortishiga olib keladi. Bunga sabab qirindi materialini keskich cho'qqisida hosil bo'luvchi o'simta bilan ilashishni ortishi tufayli, qirindini harakatini sekinlashishidir (**1-rasm**).



**1-rasm. O'simtaning keskich oldingi yuzasi yeyilishiga ta'siri**

Sovutish va moylash suyuqliklari kesish jarayonida kontakt yuzalardagi ishqalanish koeffitsiyentini kamaytiradi, natijada qirindi hosil bo'lish jarayoni osonlashdi, yeyilish kamayadi.

## KESISH TEZLIGINI KESKICH TURG‘UNLIGIGA TA’SIRI

Tadqiqot qilish jarayonlarida, muayyan sharoitda kesish tezligi bilan uning turg‘unligi orasidagi bog‘lanish ma’lum biror koeffitsiyent A orqali ifodalanadi, ya’ni:

$$v = \frac{A}{T^m}$$

Bu ifodaning grafik ko‘rinishi (**5-rasm (a)**) da ko‘rsatilgan. Grafikdan ko‘rinadiki, kesish tezligi bilan uning turg‘unligi orasidagi bog‘lanish ekstremal xarakterga ega bo‘lib, uning o‘ng tomoni giperboloid egri chiziqdandan iboratdir. Bu egri chiziq ikkilamchi logorifmik koordinatalar sistemasida to‘g‘ri chiziq holatida ko‘rinadi. (**5-rasm (b)**).

$$v = \frac{A}{T^m}$$

tenglama logarifmlangandan keyin:

$$\lg v = \lg A - m \lg T$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Yeyilish egri chizig‘ini yasash uchun kerak bo‘lgan ekstremal birliklarni aniqlash va  $v = \frac{A}{T^m}$  formulani hosil qilish uchun muayyan sharoitda 5 – 6 xil tezliklar tanlab olinadi.


Kesuvchi asbobning umumiyligi turg‘unligi deganda keskichning to‘la yemirilguncha bo‘lgan davrdagi turg‘unligi tushuniladi. YA’ni bu davrning oxirida keskichning charxlash befoydadir. Chunki bu vaqtida plastinkani keskich tanasiga o‘rnatilishi mustahkam bo‘lmaydi.

Agar keskich turg‘unligi T harfi bilan belgilasak, u holda keskichni umumiyligi turg‘unligi  $\sum KT$  ga teng bo‘ladi.

Bu yerda: K – charxlash soni.

Laboratoriya ishi xisoboti  
KESUVCHI ASBOB YEYILISHINI TEKSHIRISH

O‘lchash ketma – ketligi	D mm	P ayl/min	m/min	mm	Orqa yuza bo‘ylab yeyilish mm	O‘yiq chuqurligi mm da	Mash minda	Xulosa



5-rasm. Kesish tezligi bilan uning turg'unligi orasidagi bog'lanish

## Laboratoriya ishi № 12

### **Mavzu: Kesish jarayonida xosil bo‘luvchi kuchlar va kuchlar miqdoriga ta’sir etuvchi faktorlarni o‘rganish.**

**Ish maqsadi:** Materiallarni frezer stanoklarida kesib ishlash jarayonida hosil bo‘luvchi kuch miqdoriga kesish rejimlarini (kesish tezligi, surish kattaligi, va kesish chuqurligi) ta’sirini o‘rganish.

#### **Umumiylumot**

Materiallarni kesib ishlash jarayonida ajralib chiqayotgan qirindi bilan kesish oldingi yuzasi, keskich orqa yuza bilan zagotovka orasidagi kontakt yuzalari orasidagi ishqalanish davrida o‘ta, murakkab xar – turli deformatsiyalarin hodisalari nomoyon bo‘lib, bu jarayon ezilish, so‘rilish, kesilish, qirqilish kabi faktorlar bilan xarakterlanadi.

Kesish jarayonida keskich qirindi va ishlov berilayotgan zagotovka tomonidan ta’sir etayotgan kuch miqdorini bartaraf etuvchi kuch quyilishi shart. Agarda bu shart bajarilmasa kesish jarayonini amalga oshirib bo‘lmaydi.

Kesish jarayonini amalga oshirishni ta’minalash uchun kesish jarayonini mexanizmini, ya’ni kesish kesish kuchlarini hosil bo‘lishi va ularni kontakt yuzalarida yuzaga keluvchi fiziko – mexanikaviy xodisalarga ta’sirini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Quyida frezalash jarayonida hosil bo‘luvchi kuchlar va ularni frezaga ta’siri sxemasi keltirilgan. Torets frezalarda jarayonida frezaning kesuvchi qirralariga ta’sir etuvchi kuch miqdori ishlov berilayotgan materialarning kesilishga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati bilan xarakterlanadi.

Frezalashda kesish kuchining asosiy tashkil etuvchisi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P_z = \frac{wlp \cdot t^x s_t^y \cdot B^{\Pi} \cdot z}{D^q \cdot \Pi^w} \cdot K_{mp} \quad (1)$$

bu yerda:  $z$  – freza tishlari soni;

$p$  – frezaning aylanish soni, ay/min;

$S_r$  – ishlov berilayotgan materialning fiziko – mexanik xossasiga, ishlash sharoitiga bog‘liq koeffitsiyent;

$x, y, p, d, w$  – daraja ko‘rsatkichlari;

$K_{mp}$  – ishlov berilayotgan materialning sifatiga bog‘liq bo‘lgan koeffitsiyenti.

Kesish kuchining qolgan tashkil etuvchilarining qiymatlarin asosiy kesish kuchining miqdoriga nisbatan spravochniklardan (SP TM str. 292 (42)) aniqlanadi.

(Gorizontal kuch –  $P_L$ , vertikal kuch –  $P_V$ , radial kuch –  $P_y$ , o‘q bo‘yiga yo‘nilgan kuch -  $P_x$ )

$P_{y2}$  – kuchining qiymati quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$P_{yz} = \sqrt{P_y^2 + P_z^2} \quad (2)$$

Bu kuch miqdoriga qarab freza o‘rnatish uchun ishlatiladiganning egilishiga

qarshilik ko'rsatish qobiliyati hisoblaniladi.

Kesish kuchining tashkil etuvchilarini o'zaro nisbati quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval – 1.

Torets va barmoqsimon frezalar	$P_n : P_z$	$P_v : P_z$	$P_y : P_z$	$P_x : P_z$
Simmetrik kesishda	0,3-0,4	0,85-0,35		
Nosimmetrik qarama – qarshi kesishda	0,6-0,8	0,6-0,7	0,3-0,4	0,5-0,55
Nosimmetrik bir tomonga yo'nishda	0,2-0,3	0,9-1,0		

### Ish bajarish tartibi.

Diametri D=90 mm bo'lgan bitta tishli torets freza bilan razmeri 40x80x200 mm bo'lgan zagotovkani quyidagi sharoitda frezalanadi:

1.  $V=40$  mm,  $t = 1$  mm olinib  $s$  ning 0,1; 0,2; 0,4; 0,6; 0,8 mm tishga teng bo'lgan qiymatlarida;
2.  $V=40$  mm,  $s = 0,1$  mm tish olinib  $t$  ning 1; 2; 3; 3,5; 4 mmli qiymatlaridi;
3.  $t = 1$  li,  $s = 0,1$  tish olinib  $V$  ning 10; 20; 30; 40; mmli qiymatlarida.

UDM – 600 markali universal diametr yordamida tayanchlar maksimal kuchlanish (600 kt) ta'sirida bo'lgan vaqtda kesish kuchining o'rtacha qiymatlari o'lchaniladi.  $P_z$ ;  $P_y$ ;  $P_x$ ; kuchlarning oniy qiymatini chastotasi 0 – 500 Gs oralig'ida noaniqlik miqdori 10% dan oshmagan holda osilograf yordamida ko'zatish mumkin.

Sinov natijalari va sinov o'tkazilgan sharoit izlanish karga yoziladi.

Olingan natijalarga asoslanib  $f_2 = f(s_z)$  orasidagi bog'lanishlar grafigi ikkilamchi logarifmli setkada ifodalanadi.

Bu bog'lanish ikkilamchi logarifmik setkada to'g'ri chiziq ko'rinishida bo'ladi (rasm 1 a, b, v). Daraja ko'rsatkichlarining qiymatlari kordinatalar sistemasi hosil qilingan to'g'ri chiziqning tegishli koordinata o'qlariga nisbatan burchak tangenisi bilan xarakterlanadi, ya'ni  $x = t g \alpha$ ;  $y = t g \alpha_2$ ;  $n = t g x_3$ ; . Koeffitsiyent  $S_r$  – ning qiymati 1 – chi formula orqali tekshirish qaroridagi ma'lumotlar asosida aniqlanadi. Formulaga  $S_r$  – ning 3 – 4 tajriba natijalarini hisoblash orqali olingan o'rtacha qiymati quyiladi.

Koeffitsiyent  $S_r$  – ning 1 – chi formuladagi daraja qiymatlarini,  $R_z$  – kuch miqdorini quyidagi keltirilgan jadvaldan (2) foydalanib aniqlash ham mumkin.

Jadval – 2

Frezaning kesuvchi qism materiali	Koeffitsiyent va daraja ko'rsatkichlari.					
	$S_r$	x	u	$\eta$	g	W
Uglerodli po'latlarni kesishda, $r_b = 750 MIIa$						
Qattiq qotishma.	82,5	1,0	0,75	1,1	1,3	0,2
Tez kesar po'lat	82,5	0,75	0,8	1,1	1,1	0
Qattiq qotishma	12X18N10T markali zanglamaydigan po'latni kesish, NV 141					
	218	0,92	0,78	1,0	1,15	0

Qattiq qotishma Tez kesar po'lat	NV 190 bo'lgan ko'lrang cho'yanni kesishda					
	54,5	0,9	0,74	1,0	1,0	0
	60	0,9	0,72	1,14	1,14	0
Qattiq qotishma Tez kesar po'lat	NV 150 bo'lgan bog'lanuvchi cho'yanni kesishda					
	421	1,0	0,75	1,1	1,3	0,2
	50	0,95	0,8	1,1	1,1	0

## **ISH BAJARISH JARAYONIDA ISHLATILADIGAN ASBOB VA USKUNALAR**

Torets freza bilan kesib ishslash jarayonida hosil bo'ladigan kuch miqdorlarini o'lhash tajribasini UDM – 600 markali universal dinametr foydalananish tavsiya etiladi. Bu universal dinometr komektiga tubandagi uskunalar kiradi.

- 1 – dinometr – datchik;
- 2 – zagotovka o'rnatish uchun stal;
- 3 – tenzometrik kuchaytirgich, 4ANA422;
- 4 – priborlar pulti;
- 5 – osilograf, o'tkazgichlar.

### **1. DINOMETRNING TUZILISHI**

UDM – 600 markali dinometrning tana qismida maxsus joy uyilgan bo'lib, bu yerga tutqich 3 joylashtiriladi va ustki qismi qopqoq bilan berkitilgan bo'ladi. Tutqich 3 to'rtburchak shaklida bo'lib, yuqori qismi aylanma shaklda bo'ladi va tutqich bu qismi bilan dinomometrga maxsus stolchani o'rnatish uchun xizmat qiladi. Rezinadan tayyorlanilgan halqa 11 dinometr mexanizmlariga yog' yoki chang kirishdan saqlash uchun xizmat qiladi. Tutqich 16 ta elastik tanyalar orqali o'rnatiladi. Bu tayanchlarning har biri vtulka 9 va elastik sharpirlar vazifasini o'tuvchi ikkita oyoqqa 7; 8 iboratdir.

Tayanchlarning bunday konstruksiyasi uning o'q buyiga yuqori va o'qqa tik bo'lgan tekislikda kamroq bikrligiga ega bo'lishni ta'minlaydi. Tayanchlar yo'naltiruvchi vtulkalarga (6) o'rnatiladi. Got – 4 yordamida tanyachlarning tarangligi ta'minlanadi va suxoriklar (5) yordamida shu holatda o'zgarmay turishi ta'minlanadi.

Tayanch vtulkalariga bazasi 10 mm, qarshiligi 100 m bo'lgan datchiklar (simli) yopishtiriladi. Vertikal joylashgan o'q tayanchga 1 datchik yopishtirilib  $R_z$  – kuchni o'lhashga moslashilgan sxemaga ulaniladi.

Gorizontal joylashgan o'q tanyachiga ega 2 tadan datchik yopishtiriladi: birinchi datchik  $R_y$  va  $P_x$  kuchlarni o'lhash sxemasiga; ikkinchi datchik esa burovchi momentni ( $M_q$ ) o'lhash sxemaga ulanadi.

O'tkazgichlarning har bir datchikdan dinometr korpusidagi teshikdan chiqarilib kelish (13) orqali rotslel (12) ga tutashtiriladi va o'lhash sxemasiga qo'shiladi.

Dinometr korpusdagi uyiqqa o'rnatilgan rotsel (12) maxsus qopqoq (16) bilan berkitiladi. O'lhash sxemasidan chiqarilgan o'tkazgichlar ajraluvchi briktirgichlar bloki yordamida usilitelga ulaniladi.

## **DINOMOMETRNING ISHLASH PRINSIPI**

UDM – 600 markali dinomometr tubandagi prinsipda ishlaydi:

Kesish kuchi ta'sirida dinometrning bikirligi kichik bo'lgan qisimi, ya'ni tanyachlari deformatsiyalana boshlaydi. Natijada vertikal tanyachlarga yopishtirilgan simli datchiklar hamma tanyachlarga ta'sir etayotgan kuch miqdoriga proporsional kattalikda egila boshlaydi.

O'lchov sxemasi hosil bo'layotgan signal elektron kuchaytirgichda kuchaytirilib zanjirga parallel ulanilgan mikroapereletrdan o'tadi va osilografning tebratgichiga uzatiladi.

Osilografda shu usul bilan dinametrning ko'rsatgan qattiqligi qayd etiladi.

## **DINOMOMETR TARIROVKALASH**

Dinomometr tarirovka qilishda maqsad, uning sezgirligini tarirovkalash stendida tekshirish maqsadida qo'llaniladi. Bu jarayon tubandagi tartiba olib boriladi:

1. Dinomometr tarirovkalash stendiga o'rnatiladi.
2. 2 – 8 punktga asoslanib dinomometr ishlatish uchun sozlaniladi.
3. Dinomometr etalon kuchlanish bilan yuklaniladi va uning kursatishi hisobga olinadi.

Dinomometr uning ruxsat etilgan kuchlanish chegarasida namuna kuchlanish bilan 3 – 4 marotaba qayta yuklanilib, olingan natijalar asosida tarirovkalash grafigi ko'rildi.

Tarirovkalash grafigi ko'rish quyidagi tartibda olib boriladi. Kordinatalar sistemasida vertikal o'q buylab dinometrning ko'rsatish (Amko), gorizontal o'q buylab kattalik, ya'ni tegishli yo'nalishdagi kuch miqdorini kuchaytirish koeffitsiyentiga ko'paytirilib yoziladi. Tarirovkalash grafigini gorizontal o'qiga nisbatan qiyaligi quyidagi koeffitsiyent orqali harakterlanadi.

$$K = \frac{A \cdot m}{P}$$

bu yerda: A – dinometrning ko'rsatishi;  
R – kesish yoki namuna kuch;  
m – ko'chaytirish koeffitsiyentining kattaligi, tajriba oldidan aniqlanadi.

## **DINOMOMETR KO'RSATGAN NATIJALARINI YAKUNLASH**

Kesish kuchining qiymatini quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$P = \frac{A \cdot m}{K} KTC$$

bu yerda: k – tarirovkalash grafigini koeffitsiyenti.  
Kuchaytirish koeffitsiyentini, tajriba boshlanguncha quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$m = \frac{p_{\max} \cdot K}{A_{\max}}$$

bu yerda:  $R_{max}$  – tajriba jarayonida aniqlangan maksimal kesish kuchi;  
 $A_{max}$  – hisoblash asbobning strelkasini maksimal burilishi.

Agar butun tajriba o'tkazish jarayonida k – doimiy bo'lsa, tarirovkalash egri chiziqdan foydalanishni soddalashtirish maqsadida absissa o'qi bo'yab qo'shimcha o'lhash shkalasini ko'rish mumkin. Bu shkala qiymatlarni asosiy shkaladagi birliklari tuzatish koeffitsiyenti usuli bilan aniqlanadi. Yordamchi shkaladan o'lchanilayotgan kuch miqdorini sonli qiymatini aniqlash mumkin.

### ***O'LCHASH METODIKASI VA TAJRIBA NATIJALARINI YAKUNLASH***

Kesish kuchining miqdori osilografda hisobga olinadi va qiymatlarga asoslanib kuchning o'zgarish egri chizig'ini osilogrammasi chiziladi.

Tubandagi rasmida zanglamaydigan 12X18N10T markali po'latni diametri D=90 mm bo'lgan 1 ta tishli torets freza bilan kesish jarayonida hosil bo'luvchi kuchni ossilogrammasi ko'rsatilgan.

Bu ossillogramma

Bo'lgan sharoitda mos keladi.

Kesish kuchining qiymatini torirovkalash egri chizig'i yordamida aniqlaniladi. Ossilogrammadagi egri chiziqning balandligi o'lhash orqali kesuvchi kuchining tashkil etuvchilarini o'rtacha qiymati aniqlaniladi.

### ***LABORATORIYA ISHINI BAJARISH TARTIBI***

1. Torets freza korpusiga plandagi asosiy burchagi  $\varphi=30^0$ , faskasi  $f_c = 1\text{mm}$  bo'lgan VK8 markali qotishmadan tayyorlanilgan keskich o'rnatilib qotiriladi.
2. Frezer stanogining stoliga dinometr o'rnatib unga razmerlari 40X800X200 mm bo'lgan zagotovka joylashtiriladi.
3. Dinometr, usilitelga uni esa stablizator orqali tok manbaiga ulaniladi.
4. Usilitel tok zanjirga ulanilgandan keyin ma'lum vaqt (20 – 15 minut) qutiladi. Bu davrda hamma apparaturalar muayyaan turg'un temperatura holatini egallaydi.
5. Ossilografni sozlash.
6. Usilitelni o'tkazgichlar yordamida o'lhash shitiga va oligrafiga ulash kerak.
7. Kuchaytirgichdagi ulagich – P yordamida kerakli kuchaytirish darajasini aniqlash va sozlash.
8. «Nolga moslash» qurilmasi yordamida hisoblash asbobini boshlang'ich holati sozlash kerak.
9. Zagotovkani  $v = 20; 25; 30; 35; 40; \dots 90 \text{ m/min}$ ;  
 $t = 1 \text{ mm}$   
 $s = 0,1; 0,2; 0,3; 0,4; 0,5; 0,6 \text{ mm/tish}$
10. Tajriba tamom bo'lgandan keyin qurilmani tok zanjiridan ajratish va joy – joyiga quyish.
11. Olingan ma'lumotlarga asoslanib burovchi momentni hisoblash kerak.

$$\text{ya'ni: } M_{\delta p} = \frac{P_z \cdot D}{2 \cdot 100} H \cdot M$$

bu yerda: D – freza diametri, mm da.

12. Kesish jarayonini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan effektiv quvvatni hisoblanadi.

$$N_3 = \frac{P_z \cdot V}{1020 \cdot 60} \kappa \theta m$$

13. Xulosa.

## Laboratoriya ishi № 13

**Mavzu: Kesish jarayonida xosil bo‘lgan yuza tozaligini o‘lchash va kesish rejimlarining yuza tozaligiga ta’siri o‘rganish.**

**Ishdan maqsad:** Bu laboratoriya ishida talabalar 283-modelli profilometr-profilagraf asbobi yordamida detal yuzasining g‘adir-budurligini aniqlash usullari o‘rganiladi.


### **Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.**

1. 283-modelli profilometr-profilagraf asbobi;
2. 1K62 rusumli tokarlik-vintqirqish stanogi;
3. Kesib ishlangan zagotovka.

### **Umumiylumot**

Sirtlarning g‘adir-budurligini nazorat qilish

Sirtlarning g‘adir-budurligini aniqroq baholash uchun solishtirish mikroskoplari, g‘adir-budurlikni mikrometrlar hisobidagi kattaliklarini aniqlash uchun esa turli mikroskoplar (interferension, ikkilangan) va kontakt shchupli asboblar ishlatiladi.



**1- rasm. MII- 4 interferension mikroskopi:**  
1-o‘lchash stoli, 2-yoritish lampasi, 3-okulyar

Ishlatiladigan namunalarni attestatsiya qilish uchun detallardagi mos sirtlar notekisliklarining balandliklarini suratga olish uchun interferometr (MII-4 yoki MII-11 modellari) deb ataladigan asboblar ishlatiladi. Bu asbobda (**1-rasm**) 10 dan 14-klassgacha bo‘lgan sirtlarning g‘adir-budurligini o‘lchash mumkin.


O‘lchanadigan detal namuna stolchasi 1 ga o‘rnataladi. Bu stolcha o‘zaro perpendikulyar yo‘nalishlarda siljishi mumkin. Yoritkich 2 ning lampasi yorug‘lik manbai hisoblanadi. Okulyar 3 ning ko‘rish maydoniga bir vaqtning o‘zida

tekshirilayotgan sirt va egri-bugri sirt notekisliklariga mos kelgan interferension polosalar (yo'lchalar) tushadi.

Kontakt-shchupli asboblarga profilmeterlar va profilograflar deb ataladigan asboblar kiradi.

Profilometrlar,  $R_a$  sirt profilining o'rtacha arifmetik og'ishini bevosita ko'rsatish uchun, profilograflar esa sirt profilini profilogramma ko'rinishida yozib olish uchun mo'ljallangan.

Shchupli asboblarning ishlash prinsipi **2-rasm**, a da ko'rsatilgan. Datchik 2 ignasi 1 ning olmos uchligi tekshirilayotgan sirt 3 bo'yicha siljiganda mikronotekisliklarga qarab tebranadi.



### 2-rasm. Shchupli asboblar:

a-ishlash prinsipi (1-igna, 2-datchik, 3-detali sirti, 4- g'ildirak), b-blok konstruksiyali profilograf-profilometr

Ignaning bu tebranishlarini g'altak 4 ning chulg'ami qabul qiladi. Uyg'otiladigan kichik toklar kuchaytirgich orqali ko'rsatish asbobiga yoki profilogrammani chizadigan qurilmaga (profilograflarda) uzatiladi.

**2-rasm**, b da profilograf-profilometrning blok konstruksiyasi ko'rsatilgan. Strelkali asbob mikronotekislikni 5 dan 12 aniqlik klassigacha  $R_a$  kattaliklarda ko'rsatadi, yozib oluvchi asbob esa g'adir-budurlik diagrammasini kattalashtirilgan masshtabda beradi. G'adir-budurliklari o'lchanadigan teshiklarning diametri 3 mm dan kichik bo'imasligi kerak.

"Kalibr" zavodi qo'shimcha qurilmalari bo'lgan 202 modelli profilometr-profilograflar (buyurtma bo'yicha) ishlab chiqarishni mo'ljallangan. Bu qo'shimcha qurilma egrilik radiusi 4 dan 80 mm gacha hamda 50 mm dan va undan katta bo'lgan egri chiziqli sirtlarning g'adir-budurliklarini o'lhash uchun va egrilik radiusi 1 dan 25 mm gacha bo'lgan sharchalar va roliklar, sirtlarining g'adir-budurliklarini o'lhash uchun mo'ljallangan. G'adir-budurliklarni profilometr-profilografda o'lhashda ko'rsatishdagi ruxsat etilgan xatolik  $\pm 10\%$  ni, qo'shimcha qurilmalardan foydalanilganda esa  $+ 16\%$  ni tashkil etadi.

G'adir-budurlikning barcha parametrlari mod. 201 tipli profilometrda hosil qilingan profilogramma bo'yicha aniqlanishi mumkin. Masalan, balandlik

parametrlari 0,06 - 400' mkm ( $R_a$ ,  $R_z$ ,  $R_{max}$ ) chegarada, qadam parametrlari ( $S$  va  $S_r$ ) va tayanch sirt  $t_r$  lar esa barcha son diapazonida aniqlanadi. Yorug'lik kesimli optik asboblar (MIS-11 va PSS) da va rasterli o'lchash mikroskoplari (ORIM-1) da balandlik parametrlarini 0,5 dan 80 mkm gacha chegarada, qadam parametrlarini 0,002 dan 8 mm gacha chegarada o'lchash mumkin.

### **Ish xaqida xisobot.**

Xisobotda bajariladigan ishdan maqsad, 283-modelli profilometr-profilagraf asbobi umumiy sxemasi, asosiy qismlarining vazifalari, bajarilgan ishlarning kiskacha tafsiloti va sxemalar keltiriladi.

## Laboratoriya ishi № 14

### Mavzu: Metall kesish stanoklarining asosiy turlari va mexanizmlarini o‘rganish.

**Ishdan maqsad:** 1K62 modeli tokarlik-vintqirqish stanogining umumiyligini tuzilishi va mexanizmlari bilan tanishish.

#### Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.


1. 1K62 rusumli tokarlik-vintqirqish stanogi;
2. Tokarlik-vintqirqish stanogining sxemasi;

#### Umumiylumot.

Xozirgi vaqtida tokarlik-vintqirqish stanoklarining bir necha rusumlari mavjud bo‘lib, 1D62M; 1D63-A; 1A62; 163; 1K62; 16K20 shular jumlasidandir.

Laboratoriyalarda ko‘prok 1K62 rusumli stanokdan foydalilanildi. Bu stanoklarning asosiy parametrlari ishlov beriladigan zagotovkaning stanicadan yuqoridagi eng katta diametri va stanok markazlari orasidagi eng katta masofadir, bu masofa ishlov beriladigan detalning maksimal uzunligini belgilaydi.

1K62 rusumli stanokda (**1-rasm**) tashqi diametri 400 mm gacha bo‘lgan zagotovkalarning sirtqi silindrik, konus shaklidagi va shakldor yuzalarini yo‘nish, torets yuzalarini yo‘nish, sirtqi va ichki rezbalar qirqish, teshiklarini yo‘nib kengaytirish, parmalash, zenkerlash va razvyortkalash, qirqib tushirish kabi ishlarni bajarish mumkin.



**1-rasm. 1K62 modelli tokarlik – vintqirqish stanokning umumiyligini ko‘rinishi**

Stanok stanina (A), oldingi (shpindelli) babka (B), ketingi babka (V),

keskich-tutgich o'rnatilgan support (**G**), supportni harakatga keltiruvchi fortuk (**D**) va stanokni boshqarish elementlaridan tarkib topgan.

**Stanina** stanokning barcha asosiy o'rnatish uchun xizmat kiladi va stanokning asosi xisoblanadi. U yuqori sifatli cho'yandan qo'yiladi. Staninaga yo'naltiruvchilar ko'zgalmas qilib o'rnatiladi. Stanok farto'qi va ketingi babka ana shu yo'naltiruvchilar buylab suriladi.

**Oldingi babka** stalinaga qo'zg'almaydigan qilib mahkamlangan. Unda stanokning asosiy harakat (shpindelning kesib ishlanuvchi zagotovka bilan aylanma harakati) tezliklar kutisi bo'lib, uning oxirgi zvenosida asosiy ishchi organ — shpindel joylashgan bo'ladi. Shpindel boshidan oxirigacha teshik bo'ladi va ishlov beriladigan chiviq material ana shu teshik-dan o'tkaziladi. Shpindelning oldingi sirtiga patron yoki planshayba o'rnatish uchun rezba kirkilgan. Patron yordamida zagotovka stanokka maxkamlanadi.

**Asosiy harakat tezliklar qutisi** ostida surish harakati (keskichning buylama va ko'ndalang harakati) tezliklar kutisi (3) va yon tomonidan almashinuvchi tishli g'ildiraklar gitarasi (4) joylashgan. Asosiy harakat miqdorini o'zgartirish uchun shu tezliklar kutisi devorida joylashgan boshqarish dastasidan foydalilanadi.

**Surish harakat tezliklar qutisi** harakatni shpindeldan almashinuvchi tishli g'ildiraklar gitarasi, so'ngra surishlar mexanizmi orqali surish vali (5) yoki surish vinti (6) ga o'zatadi. Surish vali yoki surish vinti esa support mexanizmlarini harakatga keltiradi.

Almashinuvchi tishli g'ildiraklar gitarasidan rezba qirqishda keskichning surilishini rezba kadamiga mos ravishda sozlash uchun foydalilanadi.

**Ketingi babka** stalinaning o'ng tomoniga o'rnatilgan bo'lib, markazlar orasiga siqib yo'niladigan uzun zagotovkalarni tutib turish yoki zagotovkadaki teshikka ishlov berishda kesuvchi asbobni (parma, zenker, razvertkani) o'rnatish va max kamlash uchun foydalilanadi.

**Fartuk** surish vali va surish vintining aylanma harakatini supportning to'g'ri chizikli ilgarilama harakatiga aylantirish uchun muljallangan.

#### ***Stanokning texnik tavsifi quyidagicha:***

Kesib ishlanadigan zagotovkaning eng katta diametri, mm xisobida .....	400
Kesib ishlanadigan chiviqning eng katta diametri, mm xisobida .....	36
Yo'nilihi mumkin bo'lgan eng katta uzunlik, mm xisobida.....	640; 930, 1330
Shpindelning minutiga aylanishlar soni chegaralari.....	12,5-2000
Shpindel tezliklarining soni .....	23
Supportning surilish chegaralari, mm/ayl, bo'ylama .....	0,07-4,16
Ko'ndalang .....	0,035-2,08
Asosiy elektr dvigatelining kuvvati, kvt xisobida .....	10

Stanokda turli xil xomaki va tozalab kesib ishlashlar tegishli keskichlar yordamida bajariladi. Tashqi silindrik va konusli yuzalarini yo'nish uchun o'tuvchi keskichlardan foydalilanadi. Torets yuzalari torets yo'nish keskichi yordamida yo'niladi, bunda keskich ko'ndalang harakat kiladi. Mavjud teshiklarni yo'nib

kengaytirish uchun yo‘nib kengaytirish keskichlari ishlataladi, bunda keskichga buylama harakat ( $s_b$ ) beriladi.

### **Ishni bajarish tartibi.**

1. Stanokning tuzilishi bilan tanishib chikiladi.
2. Stanokning ishlash prinsipi bilan tanishiladi. Bunda boshqarish va sozlash elementlari o‘rganiladi.
3. Stanokda bajariladigan ishlar sxemasi asosiy harakatlarni ko‘rsatgan holda chiziladi.

### **Ish xaqida xisobot.**

Xisobotda bajariladigan ishdan maqsad, 1K62 rusumli stanokning umumiyligi, sxemasi, asosiy qismlarining vazifalari, bajarilgan ishlarning kiskacha tafsiloti va sxemalar keltiriladi.

## Laboratoriya ishi № 15

### **Mavzu: 1K62 rusumli tokarlik stanogining kinematik sxemasini o‘rganish.**

**Ish maqsadi.** Talabalarni 1K62 rusumli tokarlik-vint qirqish stanogining tuzilishi, kinematik sxemasi, boshqarish organlari bilan tanishtirish.

#### **Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.**

1. 1K62 rusumli tokarlik-vintqirqish stanogi;
2. Tokarlik-vintqirqish stanogining kinematik sxemasi.

#### **Umumiylumot**

1K62 rusumli tokarlik stanogi dag‘al, yarim toza va toza ishlarni bajarishga, shuningdek barcha turdag'i kattalashtirilgan va normal qadamli, bir va ko‘p kirimli metrik, dyuymli, modulli, pitchli, arximed spiralsimon rezbalar ochishga mo‘ljallangan.

Kesish jarayonida shakl hosil qilish uchun quyidagi uchta harakat zarur:

**Bosh harakat** - zagotovkaning aylanma harakati.

**Surish harakati** - keskichning bo‘ylama va ko‘ndalang harakatlari.


Stanok quyidagi qismlarga ega (**1-rasm**):

Oldingi babka (tezliklar qutisi) (3), almashtiriladigan shesternyalar gitarasi (1), uch kulachokli patron (5), fartukli support (10), keskich maxkamlagich (13), ketingi babka (22), elektr shkaf (25),sovutuvchi suyuqlik idishi joylashgan orqa tumba (29), yuritish vinti (31), yuritish vali (32), tog‘ora (38), stanina (39), oldingi tumba (40), uzatmalar qutisi (4).

Stanok quyidagi boshqarish mexanizmlariga ega:

- shpindelning aylanish chastotasini o‘rnatish dastalari 2, 7;
- rezbaning normal yoki kattalashtirilgan qadamini o‘rnatish dastasi 5;
- chap va o‘ng rezbani o‘rnatish dastasi (6);
- reyka (9);
- supportning ko‘ndalang uzatish karetkasi 11;
- supportning qo‘l bilan harakatlantiriladigan ustki salazkasi 12, 14;
- keskich tutqichining qisish dastasi 15;
- yuritish vintining ajraluvchi gaykasini boshqarish dastasi 16;
- support ustki salazkasining surish dastasi 17;
- shpindeli ishga tushirish, to‘xtatish va orqa tomonga aylantirish (revers) dastalari 18, 41;
- support va karetkaning tezlashtirilgan harakati knopkasi 19;
- supportning bo‘ylama va karetkaning ko‘ndalang uzatish harakatini boshqarish dastasi 20;
- ketingi babka pinoli 21;
- ketingi babka yostig‘i 23;

- ketingi babka pinolini kisish dastasi 24;
- ketingi babkani stanicaga mahkamlovchi qisqich 26;
- ketingi babkani stanicaga mahkamlovchi dasta 27;
- ketingi babkadagi pinolni qo‘l bilan surish dastasi 28;
- bosh harakatning friksion muftasini ulash vali 30;
- bosh ha-rakat elektr dvigatelini «yurgizish» va «to‘xtatish» knopkasi 33;
- support karetkasini qo‘l bilan surish dastasi 34;
- fartuk 35;
- rezba ochishda tishli g‘ildirakni reykadan ajratish knopkasi 36;
- supportni bo‘ylama uzatish maxovigi 37;
- uzatish yoki rezba ochishni o‘rnatish dastasi 42;
- rezba qadamini yoki uzatish kattaligini o‘rnatish das-tasi 43.




**1- rasm. 1K62 rusumli tokarlik-vintqirqish stanogining boshqarish mexanizmlari**

## Bosh harakatni sozlash

Elektr dvigateldagi  $M_1$  dan ponasimon tasmali uzatma va tezliklar qutisi orqali stanok shpindeliga uzatilgan aylan-ma harakat bosh harakat hisoblanadi (**2-rasm**).

Shpindelni oldinga va orqaga aylantirish uchun ikki tomonli diskli friksion mufta  $M_1$  xizmat qiladi. Mufta tezliklar qutisidagi val (I) da joylashgan bo‘lib, uni dastalar 41 va 18 yordamida ulanadi yoki uziladi. Agar dastalarni pastga siljitsa, mufta  $M_1$  val (I) da chapga suriladi va shpindel oldinga (soat strelkasi yo‘nalishiga qarshi) aylanadi. Dastalar yuqoriga siljitsa, mufta  $M_1$  valda o‘ngga suriladi va shpindel orqaga (soat strelkasi harakati yo‘nalishida) aylanadi.

Dastalar va muftaning o‘rta neytral holatlarida shpindel harakatlanmaydi, lekin shu paytda elektr dvigatel to‘xtamay ishlayveradi.



**2-rasm. 1K62 rusumli tokarlilik-vintqirqish stanogining kinematik sxemasi**

Shpindelning aylanish chastotasini dastalar 2 va 7 yordamida o‘zgartiriladi (**1-rasm**). Dasta 2 yordamida vallar (II) va (7) da joylashgan ikkita qo‘sh tishli g‘ildirakli (34-39) va uchta qo‘sh tishli g‘ildirakli (47-55-38) bloklar qayta ulanadi. Shpindelda joylashgan ikkita qo‘sh tishli g‘ildirakli (43-54) blok chapga surib qo‘yilganda (dasta 7 ning 4 holati 1-jadval) tezliklar val (II) dan shpindelga bevosita 65/43 tishli g‘ildiraklar orqali uzatiladi. Dasta 7 yordamida val IV da joylashgan 2 ta qo‘sh tishli g‘ildirakdan iborat bloklar (88-45) va (22-45) hamda shpindelda joylashgan ikkita qo‘sh tishli g‘ildirakli (43-54) qo‘zg‘aluvchan bloklar qayta ulanadi. Shpindelda joylashgan blok o‘ngga surib qo‘yilganda dast 7 ning 1, 2 va 3-holatlarida (2-jadval) ikkita qo‘sh tishli g‘ildiraklar orqali tezliklar val (II)

dan val  $V$  ga to‘rtta uzatma olishga imkon beradi, so‘ngra harakat 27/54 tishli g‘ildiraklar yordamida shpindelga uzatiladi. Bundan shpindel perebor orqali 18 xil tezlik olishi mumkin. Umuman, shpindel 23 xil (minutiga 12,5 dan 2000 gacha) tezlikda aylanishi mumkin. Shpindel orqa tomonga (soat strelkasi yo‘nalishi bo‘ylab) aylanganda 12 xil tezlikka ega bo‘ladi.

2- jadvalda dastalar 2 va 7 ning holatlari va shpindelning oldiga va orqaga harakatlangandagi mumkin bo‘lgan aylanish chastotalari ko‘rsatilgan.

Shpindelning aylanish chastotasi  $n_{shp}$  stanokning kinematik sxemasiga muvofiq quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$n_{shp} = 1450 \frac{142}{254} \cdot \eta \left( \begin{array}{c|c} \hline 51 & \\ \hline 39 & \\ \hline 56 & \\ \hline 34 & \\ \hline \text{pevpc} & \\ \hline 50 & 36 \\ \hline 24 & 38 \end{array} \right) \times \left( \begin{array}{c|c} \hline 21 & \\ \hline 55 & \\ \hline 29 & \\ \hline 47 & \\ \hline 38 & \\ \hline 38 & \end{array} \right) \times \left( \begin{array}{c|c} \hline 65 & \\ \hline 43 & \\ \hline 22 & \\ \hline 88 & \\ \hline 45 & \\ \hline 45 & \end{array} \right) \times \\ \times \left( \begin{array}{c|c} \hline 22 & \\ \hline 88 & \\ \hline 45 & \\ \hline 45 & \end{array} \right) \frac{27}{54} \text{ MHM}^{-1},$$

bunda  $\eta$  - tasma bilan shkiv orasidagi sirpanishni hisobga olish koeffitsiyenti.

Shpindelning talab qilingan aylanish chastotasi  $n_{his}$  quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$n_{his} = \frac{1000 V_{kes}}{\pi d},$$

bunda:  $V_{kes}$  — kesish tezligi, m/min;

$d$  — ishlov beriladigan detal-ning diametri, mm.

### ***Uzatish harakatini sozlash***

Keskichning uzatish harakati bo‘ylama va ko‘ndalang uza-tishlarni hamda vint qirqish va tez uzatish harakatlarini o‘z ichiga oladi.

Uzatmalar qutisi mexanizmlari dastalar 42 va 43 yordamida boshqariladi (**1-rasm**). Dasta 42 stanokni kerakli uzatishga yoki qirqilayotgan rezba qadamiga sozlash uchun xizmat qiladi. Bu dasta jadvalli baraban shaklida yasalgan bo‘lib, unda stanokni sozlash uchun kerakli rezba qadamlari va uzatish kattaliklari ko‘rsatilgan. Dasta 42 aylanishi bilan tishli konussimon mexanizmning  $2 = 28$ ;  $2 = 25$ ;  $2 = 36$  tishli g‘ildiraklari ham harakatlanadi. Dasta 42 ni kerakli vaziyatga burishdan oldin uni o‘ziga tortib aylantirish, so‘ngra quti korpusiga cho‘ktirish kerak.

Dasta 43 stanokni ish uzatishiga, rezba ochishga, yuritish vintini ulashga va arximed spiraliga ishlov berishga sozlash uchun xizmat qiladi. Uning burilish bilan uzatmalar qutisidagi XIV valda joylashgan tishlari soni 28 bo‘lgan ikkita qo‘sish tishln g‘ildirakdan iborat blok o‘qi bo‘ylab suriladi (**2-rasm**). Supportning bo‘ylama va karetkasining ko‘ndalang surilishlari dasta 20 yordamida bajariladi. Agar dasta 20 ni chapga og‘dirilsa, stanok supporti ham chapga oldingi babka

tomonga siljiydi; dastani o‘zi tomoniga og‘dirilsa, support karetkasi ham o‘zi tomonaga suriladi.

Supportni va uning karetkasini barcha yo‘nalishlarda tez surish uchun dasta 20 ning kallagiga knopka 19 o‘rnatilgan. Uni bosilganda stanicining o‘ng tomoniga o‘rnatilgan yordamchi elektr dvigatel M2 ishga tushadi va u bilan bog‘liq holda yuritish valiga tezlashtirilgan aylanish harakati beriladi.

Supportning bo‘ylama harakati ko‘l bilan maxovik 37 ni aylantirib amalga oshiriladi.

Support karetkasini qo‘l bilan ko‘ndalang harakatlantirish dasta 34 yordamida bajariladi. Maxovik 37 ning o‘qiga bir bo‘limining qiymati 0,1 mm li bo‘ylama surish limbi va dasta 34 ning o‘qiga bir bo‘limi 0,05 mm li ko‘ndalang surish limbi o‘rnatilgan.

Supportning ustki salazkasi dasta 17 yordamida keskichni bo‘ylama qisqa masofalarga qo‘l bilan surish uchun xizmat kiladi. Salazkani markazlar o‘qiga nisbatan ma’lum burchakka burish bilan konussimon sirtlarga ishlov berish mumkin. Uzatish harakati (**2-rasm**) qo‘sish tishli (60-45) blok yordamida bevosita val VI dan (shpindeldan) 60/60 tishli g‘ildiraklar orqali (blok eng chetki chap holatiga o‘tkazilgan) yoki val III dan 45/45 tishli g‘ildiraklar orqali (blok eng chetki o‘ng holatiga o‘tkazilgan) olinadi. Stanokning bu qismi rezba qadamini kattalashtirish mexanizmi deyiladi. Chunki (60-45) blokning so‘nggi xolatida uzatish miqdori va ochiladigan rezbaning qadami 2,8 va 32 marta ko‘payadi.

Aylanma harakat val VII dan val VIII ga (42-56-35) blok orkali uch xil tezlikda uzatiladi. Harakat blokning chap chetki holatiga o‘tkazilganda 42/42 shesternyalar, o‘rta xolatida 28/56 shesternyalar va o‘ng chetki holatida 35/28, 28/35 shesternyalar orqali uzatiladi. Stanokning bu kismi *trenzel* deyiladi. Trenzel ikkita o‘ngga va bitta chapga aylanish tezligiga ega.

Uzatmalar qutisiga harakat trenzeldan gitaraning tishli g‘ildiraklari 42-95-50 (metrik, modul rezbalarda) yoki 64-95-97 (dyuymli, pitchli rezbalarda) orqali uzatiladi.

### Ish xaqida xisobot.

Xisobotda bajariladigan ishdan maqsad, 1K62 rusumli stanokning umumiyligi va kinematik sxemasi, kinematik sxemadagi mexanizmlarning asosiy vazifalari to‘g‘risida qisqacha tafsiloti va sxemalari keltiriladi.

## Laboratoriya ishi № 16

### **Mavzu: 2A135 rusumli vertikal parmalash stanogining tuzilishi, bajariladigan ishlari va kinematik sxemasini o‘rganish.**

**Ish maqsadi.** Talabalarni 2A135 rusumli vertikal parmalash stanogining tuzilishi, kinematik sxemasi, boshqarish organlari bilan tanishtirish.

#### **Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.**

1. 2A135 rusumli vertikal parmalash stanogi;
2. Parmalash stanogi umumiyl tuzilishining sxemasi;
3. Parmalash stanogining kinematik sxemasi.

#### **Umumiy ma’lumot**

Kesuvchi asboblarning bir turi – parma yordamida ochiq yoki berk teshiklar parmalash, shuningdek, teshiklarni kengaytirish uchun mo‘ljallangan stanoklar **parmalash stanoklari** guruhini tashkil etadi. Parmalash stanoklari mashinasozlik sanoatida eng ko‘p tarqalgan stanoklar jumlasiga kiradi. Parmalash stanoklari vertikal-parmalash, radial-parmalash, gorizontal-parmalash (teshik kengaytirish) stanoklariga, bir shpindelli va ko‘p shpindelli yarimavtomatlarga va boshqa parmalash stanoklariga bo‘linadi.


Parmalash stanoklari ichida eng ko‘p tarqalganlari vertikal-parmalash stanoklari bo‘lib, ular konstruksiyasi va gabariti jihatidan stolga o‘rnataladigan, devorga o‘rnataladigan va kolonnali bo‘lishi mumkin. Stolga o‘rnataladigan stanoklar 12 mm gacha diametrli teshiklar parmalash uchun ishlatiladi. 2A135 rusumli vertikal-parmalash stanogini ko‘rib chiqamiz.

#### **Vertikal-parmalash stanoklari**

Vertikal-parmalash stanoklaridan biri — 2A135 rusumli vertikal-parmalash stanogining umumiyl ko‘rinishi **1-rasm**da tasvirlangan. Bu stanok yakkalab va seriyalab ishlab chiqarish hamda remont qilish sharoitida uncha katta va og‘ir bo‘limgan zagotovkalarga teshik parmalash, teshiklarni parmalab kengaytirish, zenkerlash, razvertkalash, shuningdek, metchiklar bilan ichki rezbalar qirqish uchun ishlatiladi.

2A135 rusumli vertikal-parmalash stanogi asos (L), kolonna (stanina) (B), tezliklar qutisi (V), shpindelli babka (G) va stol (D) dan iborat. Stanokiing shpindelli babbasi ichiga surish qutisi va ko‘tarish-tushirish mexanizmi joylashtirilgan.

Stanokni harakatga keltiruvchi elektrik dvigatel kolonnaning tepe qismiga o‘rnatilgan bo‘lib, aylanma harakat tezliklar qutisiga trapetsiya nusxa kesimli tasmalar vositasida uzatiladi. Stanokning stoli va shpindelli babbasi kolonnaning yo‘naltiruvchilarida siljtiladi va zarur vaziyatda mahkamlab qo‘yiladi. Stanokning boshqarish mexanizmlari va ularning vazifasi rasmning ostida keltirilgan.



**1-rasm. 2A135 modelli vertikal-parmalash stanogining umumiy ko‘rinishi:**

1-stolni siljitim dastasi; 2-shpindelni ko‘tarish va tushirish, mexanikaviy so‘rishni ulash shturvali

Stanokda asosiy harakat (kesish harakati) kesuvchi asbob o‘rnatilgan shpindelning aylayama harakatidan, surish harakati shpindelning o‘z o‘qi bo‘ylab siljishidan, yordamchi harakatlar esa stolni va shpindelli babbani vertikal yo‘nalishda dastaki surish va shpindelni o‘z o‘qi atrofida dastaki ravishda jadal surish harakatlaridan iborat.

## **Stanokning ishlash prinsipi.**


Ishlov beriladigan zagotovka stanokning stoliga zarur vaziyatda o'rnatilib, mashinaviy tiski va maxsus moslama bilan mahkamlanadi va bo'lajak teshikning markazi shpindelning o'qiga moslamani siljitisht yo'li bilan to'g'rilanadi. Kesuvchi asbob stanok shpindeliga patron yoki oraliq vtulka yordamida mahkamlanadi. Shundan keyin kesuvchi asbob zagotovka sirtiga tegizilib, stanok ishga tushiriladi.

## **Stanokning texnikaviy tasnifi.**

Parmalanishi mumkin bo'lgan eng katta teshik diametri 35 mm;  
Shpindelning o'qidan kolennaning ichki devorigacha bo'lgan oraliq 300 mm;  
Shpindel uchidan stolgacha bo'lgan eng katta oraliq 750 mm;  
Shpindelning eng uzun yo'li 225 mm;  
Stol sirtining bo'yi 500 mm, eni esa 450 mm;  
Stolning vertikal yo'nalishda surilishi mumkin bo'lgan eng katta oraliq 325 mm;  
Shpindelning aylanish tezliklari soni 9;  
Shpindelning minutiga aylanishlar soni 68 dan 1100 gacha;  
Surish qiymatlari soni 11;  
Surish qiymatlari chegaralari 0,115 dan 1,6 mm/ayl gacha;  
Elektrik dvigatelining quvvati 4,5 kvt.

## **Parmalash stanoklarida bajariladigan ishlar**

Parmalash stanoklarida teshik ochishdan tortib, teshikka ishlov berishgacha bo'lgan operatsiyalar bilan bog'liq xilma-xil ishlarni bajarish mumkin. Parmalash stanoklarida bajariladigan ishlarning asosiy turlari **2-rasmda** sxema tarzida ko'rsatilgan.




**2- rasm. Parmalash stanoklarida bajariladigan ishlar sxemasi:**

a-parmalash; b-zenkerlash; c-razvertkalash; d-ichki rezba qirqish;  
e-zenkovkalash; f-senkovkalash

## Radial-parmalash stanoklari

Radial-parmalash stanoklari yakkalab, ssriyalab ishlab chiqarish va remont qilish sharoitida yirik hamda og‘ir zagotovkalarni parmalash, teshiklarni parmalab kengaytirish, zenkerlash, razvertkalash, metchiklar bilan ichki rezbalar qirqish va boshqalarda ishlatyldi.

3-rasmda 2V56 rusumli radial-parmalash stanogining umumiyo ko‘rinishi tasvirlangan. Bu stanokning afzalligi shundaki, unda ishlov berilayotgan zagotovkankng vaziyatini o‘zgartirmay turib, bir necha teshik parmalash yoki bir necha teshikka ishlov berish mumkin, buning uchun traversa (YE) zarur burchakka buriladida, shpindelli babka traversa bo‘ylab zarur oraliqqa siljitaladi.



3-rasm. 2V56 rusumli radial-parmalash stanogining umumiyo ko‘rinishi:

L — asos; B — qo‘zg‘almas kolonna; V — buriluvchi kolonnaning siqib mahkamlash mexanizmi; G — ichi havol buriluvchi kolonna; D — traversani ko‘tarish, gushirish va siqib mahkamlash mexannzmi; YE — traversa; J — shpindelli babka; Z — qo‘yma stol; 1- surish qutisini qayta ulash dastasi; 2-shpyandelni dastaki ravishda jadal surish va avtomatik surishni ishga solish dastasi; 3-so‘rishni aztomatik to‘xtatishni rostlash dastasi; 4-shpindelni dastaki ravishda sekin siljitim chamaragi; 5-shpindelli babkani radial yo‘nalishda dastaki surish chamaragi; 6-tezliklar qutisini qayta ulash dastasi; 7-elektrik dvigatelni yurgizish, to‘xtatish va reverslash dastasi

## **Parmalash stanoklariga oid moslama va asbob-uskunalar**

Teshik parmalash va teshiklarga ishlov berish protsessini bajarish, zagotovka va kesuvchi asboblarni o‘rnatish hamda mahkamlash uchun maxsus asbob-uskuna va moslamalardan foydalaniladi. Bunday asbob-uskuna va moslamalar jumlasiga parmalash patronlari, sangali patron, tez almashtiriladigan patron, oraliq vtulkalar, ko‘p shpindelli golovkalar, xonduktorlar va boshqalar kiradi.

Patronlar kesuvchi asboblarni mahkamlash uchun ishlatiladi. Patron esa shpindelga mahkamlanadi. Kesuvchi asbobning konussimon quyrug‘i stanok shpindelidagi konussimon teshikdan kichik bo‘lgan hollarda oraliq vtulkalar ishlatiladi. Konduktorlar parmani bo‘lajak teshik markaziga aniq yo‘naltirish uchun xizmat qiladi; konduktorlardan, asosan, seriyalab va ko‘plab ishlab chiqarish sharoitida foydalaniladi.

### **Ish xaqida xisobot.**

Xisobotda bajariladigan ishdan maqsad, 2A135 modelli vertikal-parmalash stanogining umumiyligi va kinematik sxemasi, kinematik sxemadagi mexanizmlarning asosiy vazifalari to‘g‘risida qisqacha tafsiloti va sxemalari keltiriladi.

## Laboratoriya ishi № 17

### Mavzu: 6N81 rusumli universal frezalash stanogining tuzilishi, bajariladigan ishlar va kinematik sxemasini o‘rganish.

**Ishdan maqsad:** Frezalash stanoklarida bajariladigan ishlar, freza turlari va gorizontal universal frezalash stanogining tuzilishi, ishlatilishi bilan tanishish.


#### Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.

1. 6N81 rusumli universal frezalash stanogi;
2. Frezalash stanogi umumiy tuzilishining sxemasi;
3. Frezalash stanogining kinematik sxemasi.

#### Umumiy ma'lumotlar.

Frezalash stanoklarida tekis, shakldor yuzalarga ishlov berish, to‘g‘ri va vintsimon ariqchalar ochish, sirtqi va ichki rezbalar qirqish, tishli g‘ildiraklar tishlarini ochish va xap xil kiyofali sirtqi va ichki yuzalarni kesib ishlash mumkin. Bunda freza deb nomlanuvchi ko‘p tig‘li turli xildagi kesuvchi asboblardan foydalilaniladi. (**1-rasm**)

Frezalarning turlari bilan **6-laboratoriya ishida** tanishgan edik. Bularga silindrik, torsavoy frezalar bilan tekis yuzalarga ishlov berish, diskli freza va yig‘ma diskli freza bilan ariqcha frezalash, kesib tushiruvchi freza yordamida detallarni qirqish, barmoq freza yordamida vallarda shponka ariqchasini frezalash, burchak freza yordamida burchakli ariqchalar ochish, T-shaklli freza yordamida ariqcha ochish, ikki burchakli freza yordamida burchakli yuzalarga ishlov berish va modulli diskli freza yordamida tishli g‘ildiraklarni frezalash mumkinligi to‘g‘risida tanishgandik.




**1-rasm**

Mashinasozlik sanoatida va remont ustaxonalarida eng ko‘p ishlatiladigan frezalash stanoklari universal frezalash va vertikal frezalash stanoklaridir.

Laboratoriyada 6N81 rusumli universal-frezalash stanogining tuzilishi va ishlash prinsipi bilan tanishib chiqamiz.

6N81 rusumli universal-frezalash stanok (**2-rasm**) qo‘yidagi asosiy qismlardan iborat: fundament plitasi (*L*), stanina (*B*), elektr dvigatel (*V*), shpindel (*G*), xartum (*D*), konsol (*YE*), ko‘ndalang salazka (*J*), ish stoli (*3*), burish plitasi (*I*), surish yuritmasining elektr dvigateli (*S*), opravka (*L*), osma (*M*), yo‘naltiruvchi (*N*) va boshqarish elementlari.



**2-rasm. 6N81 universal-frezdash stanogining umumiyo‘rinishi**



Fundament plitasiga stanina o'rnatilgan bo'lib, unda elektrodvigatel va asosiy xarakat tezliklar kutisi joylashgan.

Staninaning vertikal yo'naltiruvchilari bo'yab konsol siljiydi, gorizontal yo'naltiruvchisi bo'yab xartum suriladi. Ish stoli bo'ylama yo'nalishda suriladi. Konsolning yo'naltiruvchilariga ko'ndalang salazka o'rnatilgan bo'lib, bu salazkalar burish plitasi yordamida  $45^{\circ}$  gacha burilishi mumkin, bu esa ish stolini gorizontal tekislikda tegishli burchak ostida o'rnatishga imkon beradi.

Opravkaning bir tomoni shpindelga qimirlamaydigan qilib maxkamlanadi, ikkinchi uchi esa osmaga o'rnatiladi. Osmalar xartumdag'i yo'naltiruvchilarga o'rnatiladi. Frezalar opravkaga o'rnatilib, vtulkalar yordamida siqib qo'yiladi. Stanokka freza o'rnatish uchun osma xartumdan bo'shatilib, undan ajratib olinadi. So'ngra vtulkalar opravkadan yechiladi va freza o'rnatiladi.

### ***6N81 rusumli universal frezalash stanogining texnikaviy tavsifi:***

Ish stolining yuzi, mm <sup>2</sup>	xisobida.....	320 X 1250
Ish stolining eng uzun yo'li, mm	xisobida:	
buylama yo'li.....		700
ko'ndalang yo'li.....		260
vertikal yo'li.....		380
Stolning eng katta burilish burchagi.....		45°
Shpindelning aylanish chastotalari soni.....		18
Shpindelning minutiga aylanishlar soni chegaralari.....		31,5 - 1600
Stolning surilish qiymatlari soni va chegaralari: mm/min	xisobida: .....	18
buylama surilishi.....		25-250
ko'ndalang surilishi.....		25-1250
vertikal yo'nalishda.....		83-400
Asosiy xarakat elektr dvigateling kuvvati, kvt	xisobida.....	7
minutiga aylanishlar soni.....		1440
Surish xarakat elektr dvigateling kuvvati, kvt	xisobida.....	1,7
Stanokning gabarit o'lchamlari.....		2260 x 1745 x 1660 sm.

Frezalar ko'p tig'li kesuvchi asbob bo'lgani uchun kesish jarayonida ancha katta kesish kuchlari hosil bo'ladi, shu sababli detallarni moslamalarga o'rnatishda mahkamlanish joyi ishlov beriladigan yuzaga yaqin (eng qisqa) bo'lishi va zagotovka yetarli darajada bikr qilib mahkamlanishi zarur.

O'lchamlari kichik bo'lgan zagotovkalarni mashina tiskilariga mahkamlash tavsija etiladi. Ba'zi zagotovkalarni mahkamlash uchun qamragichlardan, kulachokli qisqichlardan, ponalardan, qisish moslamalaridan, burchakliklardan va domkratlardan foydalaniladi. Bunda ish stolidagi T shakldagi ariqchalar moslamalarni yoki siqish elementlarini stolga o'rnatish imkonini beradi.

Ba'zi zagotovkalarni mahkamlashga ketadigan vaqt frezalashga ketadigan umumiy vaqtning anchagina qismini tashkil etadi. Shu sababli ba'zi zagotovkalarni frezalashda havo yoki suyuqlik bilan ishlaydigan maxsus va

tezsiqar moslamalar ishlatiladi. Bu moslamalardan asosan ko‘p seriyali va yalpi ishlab chiqarish korxonalarida foydalaniladi.

### **Ishni bajarish tartibi.**

Dastlab ishning maqsadi bilan tanishib chiqiladi. So‘ngra plakatdan frazalash stanogining tuzilishi va qismlari ko‘zdan kechiriladi.

Stanokni boshqarish elementlari bilan tanishib chiqiladi va turli xil frezalarda frezalash ishlari xavfsizlik texnikasiga rioya qilgan holda bajariladi. Shundan keyin ish joyi tartibga keltiriladi va ish haqida xisobot yoziladi.

### **Ish haqidagi xisobot**

Ish haqidagi xisobotda ishdan maqsad yoziladi va universal frezalash stanogi umumiy ko‘rinishining chizmasi chiziladi. Chizmada stanokning asosiy qismlari ko‘rsatilishi lozim. Frezalash turlari, bajarilgan ish haqida xulosa yoziladi.

## Laboratoriya ishi № 18

### Mavzu: Frezalash stanoklarida tishli g‘ildaraklarning tishlarini ochishni o‘rganish.


**Ishdan maqsad:** Talabalarni 6M82 rusumli gorizontal frezalash stanogi va UBK-D-250 universal bo‘lish kallagi hamda ularni vintsimon arikchalar frezalashga sozlash usullari bilan amaliy tanishtirish:

#### **Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.**

1. 6M82 rusumli gorizontal frezalash stanogi;
2. UBK-D-250 universal bo‘lish kallagi;
3. Kesib ishslash uchun zagotovka.

#### **Stanok to‘g‘risida umumiylumotlar**

6M82 rusumli gorizontal frezalash stanogi konsolli frezalash stanoklarining eng ko‘p tarqalganidir.



**1-rasm.**

Uning shpindeli gorizontal joylashgan va unga aylanma bosh harakat beriladi. Stanokning stoli va salazkalari konsolda joylashgan bo'lib, uchta o'zaro perpendikulyar bo'ylama, ko'ndalang va vertikal yo'naliishlarda harakatlanadi. Stanokda silindrsimon, disksimon, torets, burchakli, shakldor, uchli, modulli va boshqa turdag'i frezalar bilan tekisliklarga, chiqiqlarga, shponka ariqchalariga, G-simon ariqlarga va shakldor sirtlarga ishlov berish mumkin. Stanokning texnologik imkoniyatlarini kengaytirish uchun bo'lish kallaklari o'rnatiladi.

6M82 rusumli gorizontal frezalash stanogining asosiy qismlari quyidagilardan iborat (**1-rasm**); stanina 1, elektr jihozlari kutisi 2, tezliklar qutisi 3, xartum 4, stol va salazkalar 5, konsol 6, uzatmalar qutisi 7, tirkak 8.

Stanok stanimasi uning barcha uzel va mexanizmlarini mahkamlash uchun xizmat qiladi. Staninaning ichida tezliklar qutisi, elektr jihozlar va moy vannasi joylashgan. Xartum serga yordamida freza opravkasining uchini tutib turish uchun xizmat qiladi.

Konsol quti shaklida qo'yib ishlangan bo'lib, unda vertikal va gorizontal yo'naltiruvchilar bor. Konsol vertikal yo'naltiruvchilari bilan stanimanining yo'naltiruvchilariga tutashib, u bo'ylab harakatlanadi. Konsolning gorizontal yo'naltiruvchilari bo'ylab ko'ndalang salazkalar harakatlanadi. Konsolni tirkak 8 tutib turadi.

Stolga zagotovkalar va moslamalar mahkamlanadi.

Salazkalar konsoli bilan stanok stoli orasidagi oralik bo'g'in hisoblanadi. Stol salazkalarning doiraviy yo'nalti-ruvchilari bo'ylab har ikki tomonga  $45^\circ$  burilishi mumkin.

Tezliklar qutisi shpindelga 18 xil aylanish chastotasini uzatishga mo'ljallangan bo'lib, stanina ichiga joylashgan. U tezliklarni almashlab ular dastasi yordamida boshqariladi.

Uzatmalar qutisi konsolning ichiga joylashgan bo'lib, stolga bo'ylama, ko'ndalang va vertikal yo'naliishdagi surish va tezlashtirilgan harakatlarni uzatishga xizmat qiladi.

### **Shpindel bosh harakatining kinematikasi**

Shpindel aylanish harakatining kinematik zanjiri teng-lamasi quyidagicha yoziladi:

$$n_{\text{шп}} = n_{\text{зп1}} \frac{z_1}{z_2} \left\{ \frac{z_3}{z_4} \right\} \times \left\{ \frac{z_9}{z_{10}} \right\} \times \left\{ \frac{z_{15}}{z_{16}} \right\} \text{ МИН}^{-1}$$

$$\left\{ \frac{z_5}{z_6} \right\} \times \left\{ \frac{z_{11}}{z_{12}} \right\} \times \left\{ \frac{z_{17}}{z_{18}} \right\}$$

$$\left\{ \frac{z_7}{z_8} \right\} \times \left\{ \frac{z_{13}}{z_{14}} \right\}$$

Shpindelning 18 ta aylanish chastotasi - 30- 37,5- 47,5; 60\* 75; 95; 112; 150; 190; 235; 300; 375; 475; 600; 750; 950; 1180; 1500  $\text{min}^{-1}$  tezliklar qutisida almashlab ular shaklida yo'li bilan ta'minlanadi.

Kinematik zanjirni sozlash uchun frezaning istalgan aylanish chastotasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$n_{\Phi p} = \frac{1000 V_{kes}}{\pi d_{\Phi p}} \text{мин}^{-1} = \frac{1000 V_{kes}}{60 \pi d_{\Phi p}} \text{с}^{-1},$$

bunda  $U_{kes}$  — kesish tezligi, м/мин;

$DFR$  — Frezaning diametri, мм.

Uzatish harakatining kinematikasi

6M82 gorizontal frezalash stanogida uzatish mexanizmla-ri alohida elektr dvigatel  $M_2$  orqali harakatga keltiri-ladi.

Bo'ylama, ko'ndalang va vertikal uzatishlarning kinematik zanjiritenglamalari quyidagicha yoziladi:

$$n_{\Phi p} \cdot \frac{z_{19}}{z_{20}} \cdot \frac{z_{21}}{z_{22}} \left\{ \begin{array}{c} \frac{z_2}{z_{24}} \\ \frac{z_{25}}{z_{26}} \\ \frac{z_2}{z_{28}} \\ \end{array} \right\} \times \left\{ \begin{array}{c} \frac{z_{28}}{z_{29}} \\ \frac{z_{30}}{z_{31}} \\ \frac{z_{32}}{z_{33}} \\ \end{array} \right\} \times \left\{ \begin{array}{cc} \frac{z_{34}}{z_{35}} & \frac{z_{36}}{z_{38}} \\ \frac{z_{37}}{z_{38}} & \end{array} \right\} \frac{z_{39}}{z_{40}} \times$$

$$\left\{ \begin{array}{c} \frac{z_{41}}{z_{43}} \cdot \frac{z_{44}}{z_{45}} \cdot \frac{z_{46}}{z_{47}} \cdot t_{бұйл} \\ \frac{z_{41}}{z_{42}} \cdot \frac{z_{50}}{z_{51}} \cdot \frac{z_{52}}{z_{53}} \cdot t_{верт} \\ \frac{z_{41}}{z_{54}} \cdot t_{күнд} \end{array} \right\} = \begin{cases} S_{бұйлама} \\ S_{вертикал} \\ S_{күндаланг} \end{cases}$$

Bunda:

$S_{bo'y}$  - stolning bo'ylama uzatish harakati;

$S_{ko'nd}$  - stolning ko'ndalang uzagish harakati;

$S_{vert}$  - konsolning vertikal uzatish harakati;

bo'ylama, vertikal, ko'ndalang — uzatish zanjirlaridagi har bir yo'nalishdagи vintlarning qadami.

19 .... 54 — uzatish zanjirlaridagi shesternyalarning tishlari soni.

Uzatish qutisi yordamida stol va konsol har bir yo'nalishda 18 ta uzatish harakatlari bilan ta'minlanadi.

Ularning qiymatlari quyidagicha: 19; 23,5; 30; 37,5; 47,5; 60; 75; 95; 118; 150; 190; 235; 300; 375; 475; 600; 750; 950

Stol va konsolning tezlashtirilgan harakatlarining kinematik zanjiri tenglamasi quyidagicha:

$$n_{\Phi p} \cdot \frac{z_{19}}{z_{56}} \cdot \frac{z_{39}}{z_{40}} \left\{ \begin{array}{c} \frac{z_{41}}{z_{43}} \cdot \frac{z_{44}}{z_{45}} \cdot \frac{z_{46}}{z_{47}} \cdot t_{бұйл} \\ \frac{z_{41}}{z_{42}} \cdot \frac{z_{50}}{z_{51}} \cdot \frac{z_{52}}{z_{53}} \cdot t_{верт} \\ \frac{z_{41}}{z_{51}} \cdot t_{күнд} \end{array} \right\} = \begin{cases} S_{тез.бұйл.} \\ S_{тез.верт.} \\ S_{тез.күнд.} \end{cases}$$

Bunda:

$S_{tez.bo'y}$  — stolning tezlashtirilgan bo'ylama harakati;


$S_{tez.vert}$  — konsolning tezlashtirilgan vertikal harakati;

S<sub>tez.ko'nd.</sub> — stolning tezlashtirilgan ko'ndalang harakati.

### UBK-D-250 universal bo'lish kallagi

UBK-D-250 universal bo'lish kallagini diametri 250 mm gacha bo'lgan zagotovkalarga ishlov beriladigan, stoli 2-nomerli 6M82, 6R82 konsolli frezalash stanoklariga o'rnatish tavsija etiladi. Bo'lish kallaklari konsolli frezalash stanoklarida razvyortkalar, metchiklar, frezalar, boltlarning kallaklari, gaykalarning toretsleri, shlitslar, tishli g'ildiraklar, vintli vallar va boshqa detallarni tayyorlashga imkon beradi. Shuningdek, bo'lish kallaklari zagotovka o'qini stanok stoliga nisbatan zarur burchakka o'rnatish uchun va zagotovkani o'z o'qi atrofida ma'lum burchakka burib turish va vintsimon ariqchalarni qirqishda zagotovkani uzluksiz aylantirib turish uchun zarur.


Universal bo'lish kallagi (**2-rasm**) ikkita tortqi yoy 9 li cho'yan asos 8 ga korpus 10 o'rnatilgan.



**2-rasm**

Gaykalarni bo'shatib korpusni shkala va nonius 11 bo'yicha aniqlangan ma'lum burchakka burish mumkin (2-rasm, v). Bo'lish kallagi asosiga joylashgan tayanch tekislikda shpindelga parallel joylashgan ikkita suxar bo'lib, ular kallakni frezalash stanogining stolidagi ariqchalariga o'rnatish uchun mo'ljallangan. Bo'lish kallagi korpusida ochiq teshikli shpindel joylashgan bo'lib, uning uchlari Morze konusi № 3 bo'yicha yo'nilgan. Ularning biriga markaz 12, ikkinchisiga differensial bo'lish opravkasi o'rnatilgan. Shpindelning oldingi uchida rezba va markazlovchi belbog' 13 bor. Ular shpindelga uch kulachokli o'zi markazlovchi patronni mahkamlash uchun zarur.

Shpindel bo'rtig'iga 24 ta teshikli bevosita bo'lish diskiga 7 o'rnatilgan. Shpindelning o'rta qismida chervyakli g'ildirak joylashgan bo'lib, uning toretsida aylanma ariqcha bor (2-rasm). Unga qisqich 14 ning uchi kirib turadi. Chervyakli g'ildi-rak 5 eksentrik vtulka joylashgan chervyak 4 dan aylanadi (**3-rasm**). Korpusning orqa tomoniga joylashgan sektorli dasta bilan vtulkani burib, chervyakni tishlashtirish yoki ajratish mumkin. Bo'lish diskiga — limb 17 qopqoq 15 ga joylashgan sirpanish podshipniklariga o'rnatilgan valga o'tkazilgan.



*3-rasm*

Bu valga konussimon va silindrsimon tishli g'ildiraklar ham o'rnatilgan (2-rasm). Qopqoq 15 korpus 10 ga markazlovchi kanavka yordamida qotirib, asosiga qo'zg'almas qilib mahkam-lanadi. Limbga prujina yordamida qurilma chizg'ichli sektor 16 qisilgan. Sektor ikkita chizg'ich 22 va qisish vinti 18 dan iborat. Vint yordamida chizg'ichlar zarur burchakka o'rnatiladi. Prujina shayba sektorning burilib ketishiga yo'l ko'ymaydi (2-rasm).

Stanokdan mexanik harakat oladigan val 19 sirpanish podshipniklariga o'rnatilgan va qopqoq 15 ga mahkamlangan vtulka 20 da joylashgan. Valning uchida konussimon tishli g'ildirak bo'lib, limb 17 ning valiga o'tkazilgan konussimon tishli g'ildirak bilan doimiy tishlashib turadi. Limb 17 zarur paytda qotirgich 6 bilan qattiqlab qo'yiladi.

Ketingi babka markazini gorizontal va vertikal yo'naliishlarda siljitim mumkin. Asos 1 da korpus 2 joylashgan. U shtift orqali reyka bilan tutashgan. Tishli valning kallagini aylantirib, korpusni yuqoriga surish va shtift o'qiga nisbatan burish mumkin. Ketingi babka zarur paytda bolt va gaykalar yordamida stanok stoliga mahkamlanadi (2-rasm, a). Vintga mahkamlangan dasta 5 aylantirilsa, pinol 3 yarim-markaz 4 bilan birga suriladi. Ketingi babka asosining tayanch tekisligida pinol o'qiga nisbatan to'g'rilarangan ikkita yo'naltiruvchi suxar bor. Stanok stoliga o'rnatish vaqtida bo'lish kallagi bilan ketingi babka markazlarining to'g'ri kelishi ta'minlanadi. Uzun va ingichka yetarlicha bikirmas zagotovkalarga ishlov berishda lyunet qo'shimcha tayanch vazifasini bajaradi (2-rasm, b). Lyunet korpus 3 ning

ichiga joylashgan prizmasimon kallakka ega. Kallakni gayka 2 yordamida yuqoriga va pastga suriladi. Prizmani kerakli balandlikda qotirgich vint 4 bilan mahkamlanadi.

### ***UBK-D-250 bo'lish kallagini oddiy bo'lishga sozlash***

UBK-D-250 dan foydalanishda uni oddiy bo'lishga sozlash eng qulay va keng tarqalgandir. Uning kinematik sxemasi 3-rasmida ko'rsatilgan. Oddiy bo'lishda avval chervyak 4 chervyak g'ildirak 5 bilan kallak korpusining orqa tomoniga joylashgan sektorli dasta yordamida tishlashtirilishi kerak. Qotirgich 7 yordamida limb 6 qo'zg'almas qilib qo'yiladi. Shu sababli val IV ga aylanma harakat konussimon tishli g'ildiraklar jufti 11 orqali uzatilmaydi. Aylanma harakat shpindel 1 ga yurgizish plankasi 9 dagi dasta *SH* dan silindrsimon tishli g'ildiraklar jufti 13 orqali shpindel 1 ning o'rta qismiga joylashgan chervyak 4 va chervyakli g'ildirak 5 dan uzatiladi. Bunda bevosita bo'lish diskining fiksatori 3 uzelgan bo'lishi lozim.

UBK-D-250 da chervyakning kirimlari soni  $s=1$ , chervyakli gildirak tishlarining soni  $L=40$  ga teng. Silindrsimon tishli g'ildiraklar tishlarining soni 33 ga teng. Dasta 10 bitta tanlanganida bo'lish kallagining shpindeli -gg ga aylanadi. Uning kinematik zanjiri tenglamasi quyidagicha:

$$n_{\text{un}} = n_g \cdot \frac{\epsilon_1}{\epsilon_2} \cdot \frac{k}{\epsilon_3};$$

$$\epsilon_1 = \epsilon_2 = 33, \kappa = 1, \epsilon_3 = N;$$

$$N_{\text{un}} = n_g \frac{33}{33} \frac{1}{N},$$

bunda  $p_{shp}$  — bo'lish kallagi shpindelining aylanishlari soni;

$p$  — dastaning aylanishlari soni;

$\epsilon_3 = N$  — chervyakli g'ildirak tishlarining soni;

$\&1, \epsilon_2$  — silindrik tishli g'ildiraklarning tishlari soni;

$k$  — chervyak kirimlarining soni.

Tishli g'ildiraklarga ishlov berishda kesish tezligining qiymatini quyidagi taxminiy ma'lumotlardan olish mumkin:

1. O'rtacha qattiqlikdagi bronza, latun uchun  $K_{kes} = 25—30.\text{min}$
2. Po'lat  $a_v = 40—60$  uchun  $V_{\text{,}} = 16—20. \text{mm}.\text{min}$
3. Cho'yan  $HB = 150—180$ , kattiq bronza uchun  $G_{kes} = 20—25.\text{min}$
4. Po'lat  $a_v = 70—80$  — uchun  $U_{kes} = 12—10.\text{mm}.\text{min}$

Tishli g'ildirakning moduli va tishlari soniga qarab 1-jadvaldan unga ishlov berish uchun kerakli modulli diskli frezani tanlash mumkin hamda 2-jadvaldan ishlov berishdagi uzatish harakatining qiymati olinadi.

6M82 gorizontal frezalash stanogining shesternyalarining tishlari soni 3-jadvalda keltirilgan.

1-misol. 6M82 gorizontal frezalash stanogida UBK-D-250 universal bo'lish kallagi yordamida tishlari soni  $2 = 17$  tishli g'ildirakni tayyorlang. Tishli

g‘ildirakni frezalash uchun bo‘lish kallagi oddiy bo‘lishga sozlanadi. Kallak dastasining aylanishlari sonini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$\frac{N}{s} = a + \frac{p}{g}; N = 40; s = 17; \frac{40}{17} = 2 + \frac{6}{17} = 2 + \frac{2 \cdot 6}{2 \cdot 17} = \\ = \frac{12}{34} + 2.$$

Limbda 17 sonli teshiklar yo‘qligi sababli 17 ning ikki-langani, ya’ni  $2=17 \times 2 = 34$  ni olish kerak. Natijada  $a = 2$ ;  $f = 34$ ;  $r = 12$  bo‘ladi.

To‘g‘ri tishli g‘ildiraklarni kesishda bo‘lish kallagini oddiy yoki differensial bo‘lishga sozlash mumkin.

### Differensial bo‘lish

Oddiy bo‘lish usulida zagotovkani keraklicha burish imkonni bo‘lmagak hollarda differensial bo‘lish usulidan foydalaniladi. Bu usulda dasta 10 ning burilishi qo‘zg‘almas limb 6 bo‘yicha emas, balki qotirgich 7 dan ozod qilingan aylanuvchi limb 6 bo‘yicha hisoblanadi (3-rasm).

Shpindelning orqa uchidagi konussimon teshikka opravka-ning konussimon quyrug‘i kiritiladi va almashtiriladigan tishli g‘ildiraklar ye<sub>4</sub>; g<sub>5</sub>; 2<sub>6</sub> va 2<sub>7</sub> bilan shpindel 1 konussimon tishli g‘ildiraklar jufti 11 (g<sub>8</sub>, 2<sub>9</sub>) orqali bo‘lish diskini — limb 6, yurgizish plankasi 9 va dasta 10 ga bog‘lanadi. Agar prujinali fiksator 8, chervyak 4 orqali chervyak g‘ildirak 5 aylantirilsa, valik IV konussimon tishli g‘ildiraklar jufti 11 limb 6 bilan birga aylanadi.

Differensial bo‘lishda fiksator 8 hamda limb 6 ni qo‘zg‘almas vaziyatda ushlab turadigan qotirgich 7 uzib qo‘yiladi.

Differensial bo‘lishga sozlashning kinematik zanjiri tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\frac{40}{x} + \frac{u}{s} = \frac{40}{s},$$

bundan

$$40, \quad i = \frac{(x - ya)}{x},$$

bu yerda 2 — aylanani nechta qismga bo‘lish kerak bo‘lgan son.  $x$  — g o‘rniga qabul qilingan qo‘shimcha bo‘linmalar soni;  $i$  — almashtiriladigan tishli g‘ildiraklarning uzatish nisbati.

Agar  $x > g$  bo‘lsa,  $i > 0$  (musbat), aylanish musbat bo‘lib, limb aylanishining yo‘nalishi dastaning odatdagisi yo‘nalishiga mos keladi (soat strelkasining harakati yo‘nalishida).

Agar  $x < g$  bo‘lsa,  $i < 0$  (manfiy) bo‘ladi, dasta soat strelkasining yo‘nalishida aylansa, limb soat strelkasining harakatiga teskari yo‘nalishda aylanadi.

## 1-jadval

Standartli	Frezalarning o'lchamlari													
	1	1,5	1 2	3	3,5-4	4,5	5	5,5	6	6,5	7	7,5	8	
Qirqilayotgan g'ildi raklar tishlarining soni														
8 ta frezali to'plam	2-13		14-16		7-20		21-25	—	26-34	—	35-54	—	55-134	135 va katta
15 ta frezali to'plam	3	4	15-16	7-18	9-20	1-22	23-25	26-29	30-34	35-41	42-54	55-79	80-134	135 va katta

## 2- j a d v a l

Modulli freza yordamida tishli g'ildiraklarga ishlov berishdagi uzatishlar (mm/min)

Tishli g'ildirak moduli, mm	Tishli g'ildirakning materiali				
	Bronza, Latun	Cho'yan NB-150-180 kg/mm <sup>2</sup> ,	Po'lat 40-60 kg/mm <sup>2</sup>	Po'lat, a <sub>v</sub> = 1 70-80 kg/mm*	Legirlangan pulat, a <sub>v</sub> = 80 kg/mm*
Uzatish, mm/min					
1 1,5 2 2,5 3	565 463 401	400 328 284	268 220 190	183 150 130	107 87,7 75,9
3,5 4 4,5 5	358 327 302	253 231 214	170 155 143	116 106 97,9	67,7 61,9 57,2
	283 267 252	200 189 179	134 126 120	91,5 86,3	53,5 50,5 47,6
				81,7	

## Laboratoriya ishi bo'yicha hisobot

Laboratoriya ishi bo'yicha hisobotda ishning maqsadi, stanokning asosiy qismlari, kinematik sxemasi, bosh harakati va uzatish harakatlari kinematik zanjirining tenglamalari hamda bo'lish kallagini oddiy va differensial bo'lishga sozlash, shuningdek, stanok bilan bo'lish kallagining tishli g'ildiraklarni frezalashga sozlash va ularga ishlov berish to'g'risidagi ma'lumotlar ifodalanadi.

## **Mavzu: Jilvirlash stanoklarining tuzilishi, bajariladigan ishlar va stanok kinematik sxemasini o‘rganish.**

**Ishdan maqsad:** Jilvirlash stanoklarida bajariladigan ishlar, jilvirlash stanogining tuzilishi, ishlatilishi va abraziv materiallar bilan tanishish.

### **Ishni bajarish uchun asbob-uskuna va materiallar.**

1. 3151 rusumli doiraviy jilvirlash stanogi;
2. Doiraviy jilvirlash stanogi umumiyl tuzilishining sxemasi;
3. Doiraviy jilvirlash stanogining kinematik sxemasi.

### **Umumiyl lumotlar.**

Aniq o‘lchamli va toza yuzali detallar hosil qilish maqsadida zagotovkalarga ishlov berish stanoklari jilvirlash stanoklari gruppasini tashkil etadi. Jilvirlash stanoklari doiraviy, ichki, markazsiz va yassi jilvirlash stanoklariga bo‘linadi.

Doiraviy jilvirlash stanoklari zagotovkalarning sirtqi silindrik, konussimon va shakldor yuzalarini jilvirlash uchun mo‘ljallangan.

Ichki jilvirlash stanoklari ochiq va berk silindrik hamda konussimon teshiklarni jilvirlash, markazsiz jilvirlash stanoklari esa silindrik tekis zagotovkalarga, shuningdek, shakldor yuzalarga ishlov berish uchun mo‘ljallangan. Yassi jilvirlash stanoklari zagotovkalarning yassi yuzalarini jilvirlash uchun xizmat qiladi.

### **Doiraviy jilvirlash**


1-rasmida 3151 rusumli doiraviy jilvirlash stanogining umumiyl ko‘rinishi tasvirlangan. Bu stanokning oldingi babbasi (A) da zagotovkani aylanma harakatga keltirish yuritmasi joylashgan. Jilvirlash babbasi (B) stol (YE) ning bo‘ylama yo‘naltiruvchilarida surila oladi.

#### **Stanokning texnikaviy tavsifi.**

- jilvirlanishi mumkin bo‘lgan eng katta zagotovkaning diametri 200 mm;
- markazlari orasidagi eng katta masofa 750 mm;
- stolining eng uzun yo‘li 780 mm;
- stolining burilishi mumkin bo‘lgan eng katta burchak  $\pm 6^\circ$ ;
- jilvirlash babbasining ko‘ndalang yo‘nalishdagi eng uzun yo‘li 200 mm;
- jilvirlash toshining minutiga aylanishlar soni 1050;
- oldingi babka patronning aylanish tezliklari soni 3- oldingi babka patron minutiga 15 martadan 300 martagacha aylana oladi- stolining bo‘ylama yo‘nalishda siljish tezligining eng kichigi 0,1 m/min, eng kattasi esa 10 m/min;
- jilvirlash babbasining radial surilish chegaralari 0,01 dan 0,03 mm gacha;
- asosiy elektrik dvigatelining quvvati 7 kvt.

Bu stanokda kesish harakati jilvirlash toshining aylanma harakagidan, **bo‘ylama surish harakati** zagotovka urnatilgan stolning to‘g‘ri chiziqli

ilgarilanma-qayta harakatidan, ko‘ndalang surish harakati stolning bir yurishida jilvirlash babkasining radial yo‘nalishda davriy ravishda siljish harakatidan, doiraviy surish harakati oldingi babkadagi povodokli patronning doiraviy siljishidan, **yordamchi harakatlar** esa stolni bo‘ylama yo‘nalishda dastaki siljitish, jilvirlash babkasini ko‘ndalang yo‘nalishda dastaki siljitish, jilvirlash toshining gidravlik yuritma yordamida jadal qaytish harakatlaridan iborat.



**1- rasm. 3151 rusumli doiraviy-jilvirlash stanogining umumiyo'li ko'rinishi:**

A — oldingi babka (buyum babkasi); B — jilvirlash babkasi; V — ketingi babka;  
G — stanina; J — burish plitasi; 1-jilvirlash babkasini ko‘ndalang yo‘nalishda dastaki siljitish  
chambaragi; 2-stolning gidravlik yuritmasini boshharish dastalari; 3-stolni bo‘ylama  
yo‘nalishda dastaki siljitish chambaragi; 4-knopkalar stansiyasi.


**Stanokning ishlash prinsipi.** Zagotovka oldingi va ketingi babkalarning markazlariga o‘rnatalidi va povodokli patron yordamida aylanma harakatga keltiriladida, zagotovka bo‘ylama surish bilan jilvirlashning bo‘ylama surishsiz va chuqur botirish usullari ham bor.

**Ichki jilvirlash.** Ichki jilvirlashning ikki usuli bor. Bulardan birida zagotovka aylanadi, ikkinchisida esa zagotovka qo‘zg‘almaydi. Birinchi usul ancha aniq ishlashga imkon bergenligi uchun undan ko‘proq foydalaniladi. Bu usulda zagotovka jilvirlash toshi aylanayotgan tomonning teskarisiga aylanadi. Jilvirlash toshi zagotovkaning ishlov berilayotgan teshigi o‘qi bo‘ylab suriladi va tegishli kesish chuqurligigacha ko‘ndalangiga siljib turadi.

Ikkinci usul katta zagotovkalarning teshiklariga ishlov berishda qo‘llaniladi. Bunda zagotovka qo‘zg‘almas qilib mahkamlanadi, jilvirlash toshiga esa aylanma va ilgarilanma-qayta harakat beriladi; bulardan tashqari, jilvirlash toshi ko‘ndalangiga surilib ham turadi, bu hol toshni tegishli kesish chuqurligiga to‘g‘rilash imkonini beradi.

**Markazsiz jilvirlash.** Bu usulda bir tomonning o‘ziga aylanuvchi ikkita toshdan: jilvirlovchi tosh 1 va yetakchi tosh 2 dan foydalaniladi (**2-rasm**). Jilvirlanuvchi silindrik zagotovka, masalan, porshen barmog‘i 3 pichoq 4 ustiga,

ikkala tosh oralig‘iga joylashtiriladi. Jilvirlovchi tosh 30 m/sek chamasasi tezlik bilan aylanib, kesish ishini bajaradi, yetakchi tosh esa 15—25 m/min tezlik bilan aylanadi.



**2- rasm. Markazsiz jilvirlash sxemasi.**

Yetakchi toshning vazifasi zagotovkani tutib turish, uni o‘z tezligiga yaqin tezlik bilan aylantirish va zarur bo‘lgan taqdirda, unga bo‘ylama surish harakati berishdan iborat. Zagotovkaga bo‘ylama surish harakati berish uchun, yetakchi tosh o‘qi jilvirlovchi tosh o‘qiga α burchak hosil qiladigan vaziyatga keltiriladi. α burchak qancha katta bo‘lsa, bo‘ylama surish qiymati shuncha katta bo‘ladi, ammo bunda ishlov berish aniqligi va yuzaning tozaligi yomonlashadi. α burchak, odatda, 1 dan  $6^\circ$  gacha qilib olinadi. Agar  $\alpha = 0^\circ$  bo‘lsa, zagotovka surilmay, faqat aylanadi.


Markazsiz jilvirlash usulidan yirik seriyalab va ko‘plab ishlab chiqarish sharoitida silindrik detallarga ishlov berishda foydalilanadi.

**Yassi jilvirlash.** Bu usulda jilvirlash toshining chetidan yoki toretsidan foydalilanadi. Birinchi holda jilvirlash toshining o‘qi zagotovkaning jilvirlanishi lozim bo‘lgan yuzasiga parallel, ikkinchi holda zsa perpendikulyar vaziyatda bo‘ladi. Bu ikkala holda ham asosiy harakat toshning aylanma harakatidan, surish harakati esa zagotovkaning gorizontal yo‘nalishda ilgarilanma-qaytar harakatidai iborat bo‘ladi. Birinchi holda zagotovka gorizontal shpindelli yassi jilvirlash stanogining stoliga, tosh esa shpindelga o‘rnatilib, jilvirlash toshi aylanma va ko‘ndalang yo‘nalishda ilgarilanma harakatga, stol esa bo‘ylama yo‘nalishda ilgarilanma-qayta harakatga (surish harakatiga) keltiriladi. Ikkinchi holda zagotovka vertikal shpindelli yassi jilvirlash stanogining stoliga o‘rnagilib, jilvirlash toshi aylanma harakatga, stol esa gorizonttal yo‘nalishda ilgarilalma-qayta harakatga keltiriladi.

### **Jilvirlash jarayonining mohiyati.**

Materiallarni jilvirlash toshi yordamida kesish protsessi jilvirlash deb ataladi. Jilvirlashdan ko‘zda tutiladigan maqsad zagotovkadan juda yupqa qatlam kesib olish orqali aniq o‘lchamli va toza yuzalar hosil qilishdan iborat.

Jilvirlashda kesuvchi asbob sifatida har xil shaklli va o‘lchamli toshlar ishlatiladi. Jilvirlash toshlarining asosiy shakllari **3-rasm**da tasvirlangan.



**3-rasm. Jilvirlash toshlarining asosiy shakllari:**

PP — to‘g‘ri profilli yassi; 2P—ikki yoqlama konussimon profilli; PV—bir yoqlama o‘yqli yassi; PVD — ikki yoqlama o‘yqli yassi; ChS —silindrik kosacha; ChK — konussimon kosacha; 1T — tarelkasimon.

Jilvirlash toshini juda ko‘p tishli freza deb tasavvur qilish mumkin. Darhaqiqat, jilvirlash protsessida toshning ish sirtidagi har bir dona frezaning tishi kabi ishlaydi. Jilvirlash toshi 2- klassgacha aniqlikdagi va 10- klassgacha tozalikdagi yuzalar hosil qilishga imkon beradi.

Jilvirlash protsessida toshning har o‘tishida zagotovka sirtidan 0,005 dan 0,05 mm gacha qo‘ym kesib olinadi,

Yassi jilvirlashda kesish tezlagi jilvirlash toshining aylanaviy tezligiga teng bo‘lib,  $v$  bilan belgilanadi va m\sek hisobida o‘lchanadi. Doiraviy jilvirlashda kesish tezligi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$u_{\text{жсм}} = \frac{p \cdot D_{\text{жсм}} \cdot n_{\text{жсм}}}{1000 \cdot 60} \text{ м/сек},$$

bu yerda  $D_{jt}$ — jilvirlash toshining diametri, mm;  $n_{jt}$ —jilvirlash toshining minutiga aylanishlar soni. Zagotovkaning aalanish, pgezligi quyidagicha ifodalanadi:

bu yerda  $d_z$  - zagatovkaning diametri, mm\  $n_z$ —zagatovkaning minutiga aylanishlar soni. Xomaki jilvirlashda  $v_3 = 20 — 60$  m/min, tozalab jilvirlashda esa  $v_3 = 2 — 4$  m/min bo‘ladi.

Ishlov beriladigan zagotovkaning jilvirlashdan oldingi diametri bilan toshning bir o‘tishida jilvirlangandan keyingi diametri orasidagi ayirmaning yarmi kesish yauqurligi deb ataladi va t bilan belgilanadi:

$$t = \frac{d - d_1}{2} \text{ мм},$$

bu yerda  $d$ —zagotovkaning jilvirlashdan oldingi diametri, mm;  $d_1$  —

zagotovkaning jilvirlangandan keyingi diametri, mm. Kesish chuqurligi 0,005 dan 0,09 mm gacha kilib olinadi.

Jilvirlash toshi yoki zag.otovkaning shpindel bir marta aylanganda o'q bo'ylab siljish qiymati *bo'ylama surish* deb ataladi va  $s_b$  bilan belgilanadi. Bo'ylama surish qiymati jilvirlash toshining eniga qarab olinadi:

$$s_b \approx (0,3 - 0,6) V \text{ mm/ayl},$$

bu yerda  $V$ —jilvirlash toshining eni, mm.

Materiallarni jilvirlashda ishlatiladigan toshlar abraziv materiallardan tayyorlanadi.

### **Abraziv materiallar.**

Bular nihoyatda qattiq moddalardir. Abraziv materiallar tabiiy va sun'iy bo'ladi. Tabiiy abrazivlarga korund, tabiiy olmos, qum va boshqalar, sun'iy abrazivlarga esa kremniy karbid, elektrokorund, bor karbid, sun'iy olmos va boshqalar kiradi.

Korund giltuproq ( $\text{Al}_2\text{O}_3$ ) dan iborat juda qattiq mineraldir.

Kremniy karbidi (karbide) (karbide) kremniy bilan uglerodning kimyoviy birikmasi ( $\text{SiS}$ ) bo'lib, kvars qumiga ko'mir kukuni qo'shib, zlektr yoy pechida  $2000^{\circ}\text{C}$  chamasasi temperaturada suyuqlantirish yo'li bilan olinadi. Kremniy karbidning ikki turi bor: qora (KCH) va yashil (KZ). Kremniyning yashil karbidi qorasidan ko'ra toza va qattiq bo'ladi.

Elektronik korund giltuproqni elektr yoy pechida suyuqlantirish yo'li bilan olinadigan juda qattiq material. Uning uchta turi mavjud: normal elektrokorund (E), oq elektrokorund (EB) va monokorund.

Borkarbidi ( $\text{V}_4\text{S}$ ) texnikaviy borat kislotaga neft koxsi qo'shib, elektr yoy pechida suyuqlantirish yo'li bilan olinadi. Uning tarkibida 75% V va 25% S bo'ladi.

Abraziv materialarning donadorligi. Abraziv donalarining o'lchami (nomeri) elakning shu donalar o'tgan ko'zlarini o'lchami bilan aniqlanadi va millimetrlarning yuzdan bir ulushlarida o'lchanadi.

GOST 3647—59 ga ko'ra, donadorlikning uchta gruppasi bor:

a) nomerlari 16, 20 bo'lgan mayda donali, nomerlari 25, 32, 40, 50 bo'lgan o'rtacha donali, nomerlari 63, 80, 100 bo'lgan yirik donali, nomerlari 125, 160, 200 bo'lgan ancha yirik donali jilvirdona; b) nomerlari 3, 4, 5 bo'lgan mayin donali, nomerlari 6, 8, 10, 12 bo'lgan mayda donali jilvnr poroshoklar;

v) nomerlari M5, M7, M10, M14, M20, M28, M40 bo'lgan mikroporoshoklar.

Jilvirlash toshlari tayyorlashda abraziv donalarini bir-biriga yopishtiruvchi (bog'lovchi) materiallar ishlatiladi. Bunday materiallar organik va anorganik bo'lishi mumkin.

Organik bog'lovchi materiallarini bir-biriga yopishtiruvchi bakelit (B) va vulkanitlar (V) kiradi. Bakelit bog'lovchilarining o'tga chidamliligi vul-kanit bog'lovchilaridan yuqori bo'ladi.

Anorganik bog'lovchi materiallarini jumlasiga keramikaviy (K), silikatiy (S), magnezial (M) bog'lovchilar kiradi.

*Keramikaviy bog'lovchi* gil, dala shpati va talkdan iborat bo'lib, suvg'a,

o‘tga, kimyoviy va mexanikaviy (statikaviy) ta’sirlarga chidaydi, ammo dinamikaviy ta’sirlarga yaxshi bardosh bera olmaydi.

*Silikatiy bog‘lovchi* kvars qumi, suyuq shisha va gildan iborat bo‘lib, suvga uncha bardosh bera olmaydi va, shuning uchun, kam ishlatiladi.

*Magnezial bog‘lovchi* magniy oksid bilan magniy xloriddan iborat bo‘lib, juda puxta materialdir.

Jilvirlash toshlarining qattiqligi bog‘lovchi materialniig abraziv donalarini tuta olish xususiyatiga bog‘liq.

Jilvirlash toshlarining qattiqligi bir yoki ikkita harf hamda raqamlar bilan belgilanadi:

yumshoq — M1, M2, MZ; yumshoqligi o‘rta-cha — SM1, SM2;  
o‘rtacha — S1, S2; qattiqligi o‘rtacha — ST1, ST2, STZ;  
qattiq—T1, T2; juda qattiq—VT1, VT2;  
nihoyatda-qattiq — CHT1, CHT2.

Materiallarga ishlov berishda jilvirlash toshi tanlash materialning xossasiga, hosil qilinishi kerak bo‘lgan yuzaning talab etiladigan toyaalik darajasiga, ishlov berish rejimi va boshqa faktorlarga bog‘liq.

## Laboratoriya ishi № 20

**Mavzu: Stanok (1K62 modelli tokarlik-vint sirsish stanogining) larni aniqligini tekshirishni o‘rganish.**

**Ishdan maqsad:** Talabalarini 1K62 modelli stanokning geometrik aniqligini tekshirish usullari bilan amalda tanishtirish.

### **Laboratoriyanı bajarish yuzasidan topshiriq:**

1. Stanokning vazifasi, asosiy qismlari va unda bajariladigan ishlar bilan tanishish.
2. Stanokning aniqligini mazkur usullarga muvofiq tek-shirish va o‘lchashlar natijasini jadvalga yozish.

### **Ishning hisobotini tuzish.**

Stanok haqida umumiy ma’lumotlar

Tokarlik stanoklaridan eng ko‘p tarqalgani tokarlik-vint qirqish stanogidir. Unda silindrsimon va konussimon yuzalar, shakldor aylanish sirtlari, toretslar va aylanma o‘yiqlarga ishlov berish va yuritish vinti yordamida har xil rezbalar ochish mumkin.

Metall kesish stanoklarida detallarga ishlov berish uchun quyidagilarni bilish kerak:

- mazkur stanokda qanday aniqlikda ishlov berish mumkinligini;
- unda ishlov beriladigan detalning aniq chiqishi yoki chiqmasligini.

Umuman ishlov beriladigan detalning aniqligi asosan stanokdagি harakatlanuvchi elementlarning geometrik aniqligiga bog‘liq.


Tokarlik stanoklarining aniqlik normalari Davlat standartida belgilangan.

### **Ishni bajarish tartibi**

1. Gorizontal tekislikda support bo‘ylama surilishining to‘g‘ri chiziqliliginini tekshirish.

Stanok (**1-rasm**)dagi oldingi 1 va ketingi 4 babkalarning markazlari orasiga maxsus nazorat opravkasi 3 o‘rnataladi (bunda avval patron yechilib, shpindel 1 va ketingi babka 4 pinoli 6 ning konussimon teshiklariga qo‘zg‘almas markazlar 5 o‘rnataladi. Bunda ketingi babkaning pinoli 6 qo‘zg‘almas markaz bilan birga eng chetki holatiga o‘tkaziladi).

Stanokning keskich tutkichi o‘rniga indikatorli ustun o‘rnataladi. Indikator 2 soatga o‘xshash bo‘lib, shkalasining xar bir bo‘limi 0,01 mm ga tengdir. Indikatorning uchi nazorat opravkasining sirtiga tegib turishi va opravkaning o‘qiga perpendikulyar yo‘nalishda bo‘lishi kerak.



**1- rasm.**

Indikatorning uchini strelka 1-2 marta aylangunicha opravka sirtiga botirib, shu holatda indikator shkalasi nolga keltiriladi.

1.3. Stanok supportini bo‘ylama yo‘nalishda opravkaning butun uzunligi bo‘ylab qo‘lda siljitim borib, indikatorning ko‘rsatishi kuzatiladi. Support bo‘ylama harakati to‘g‘ri chiziqliligining haqiqiy qiymati indikator strelkasining ko‘rsatishiga qarab aniqlanadi. Support bir metr surilishida yo‘l qo‘yiladigan xatolik 0,008 mm dan oshmasligi kerak.


Indikatorning ko‘rsatishi nazorat opravkasining uchlarida bir xil bo‘lishi shart. Aks holda ketingi babkaning holati uni kerakli yo‘nalishda surib sozlanadi. Tekshirish natijalari 1.1-hisobot jadvalida yoziladi. Ulchashlar soni 10 martadan kam bo‘lmasligi zarur.

2. Shpindel bilan ketingi babka pinolining o‘qlari bir xil balandlikda staninaning yo‘naltiruvchilari ustida (vertikal tekislikda) joylashishini tekshirish.

Nazorat opravkasi 2 stanokka birinchi tekshirishdagidek o‘rnataladi (**2-rasm**).

Indikator 3 ustunini support 4 ga shunday o‘rnatish kerakki, uning uchi opravka 2 ning yuqori tashkil etuvchi chizig‘iga tegib tursin. Bu chiziqni aniqlash uchun supportni ko‘ndalang yo‘nalishda siljitim indikator strelkasining eng katta nuqtasi olinadi.


Support indikator bilan birligida nazorat opravkasi uzunligi bo‘ylab qo‘lda suriladi. Ulchashlar opravkaning ikki chekkasida uning o‘rtasidan bir xil masofada amalga oshiriladi.



**2-rasm**

Xatolik indikator strelkasining ko'rsatishiga qarab, eng katta ko'rsatishlarining algebraik ayirmasi bilan aniqla-nadi. Ketingi babka pinolining o'qi oldingi babka shpindelining o'qidan faqat baland bo'lishi talab qilinadigan xatolikning qiymati 0,008 mm dan oshmasligi kerak. Ulchash natijalari 1.1-jadvalga yoziladi.

3. Shpindel tayanch bo'rtig'inining torets bo'yicha tepishini tekshirish (**3-rasm**).




Stanina indikator 1 ni uning uchi shpindel 2 ning tayanch bo'rtig'i toretsiga tegib turadigan qilib o'rnatiladi. (Bu nuqta shpindelning markazidan imkonи boricha uzoqda joylashishi kerak.) Indikatorning uchini strelka 1-2 marta aylangunicha toretsiga botirib, shu holatda indikator shkalasini 0 vaziyatga keltiriladi.

Indikator strelkasini uzlusiz kuzatgan holda, shpindel qo'l bilan asta-sekin old tomonga buriladi.

Indikatorni toretsning diametri bo'yicha ikkita qarama-qarshi nuqtalarga o'rnatib o'lchashlar o'tkaziladi. Ularning natijalari 1.1-jadvalga yoziladi. Yo'l qo'yildigan xatolikning kattaligi 0,005 mm dan oshmasligi kerak.

4. Shpindelning o'q bo'ylab tepishini tekshirish (**4-rasm**).




4.1. Shpindelning teshigiga nazorat opravkasi 2 o'rnatiladi. Opravkaning oldingi qismida markaziy teshik bo'lib, unga zoldir 4 o'rnatilgan bo'ladi.

Stanok staninasiga ustun bilan indikator uning uchi opravka markazidagi zoldirga tegib turadigan qilib o'rnatiladi.

Opravka zoldiri 4 bilan indikator 3 oralig'iga metall plastinka 5 ni joylashtirib, indikator strelkasi 0 vaziyatga keltiriladi.

Indikator strelkasini uzlusiz kuzatgan holda shpindel qo'l bilan asta-sekin kamida ikki marta aylantiriladi. Shpindelning o'q bo'ylab tepish kattaligi 0,005 mm dan oshmasligi kerak. Ulchash natijalari 1.1-jadvalga yoziladi.

5. Shpindeldagi patron o'rnatiladigan markazlashtiruvchi sirtning radial tepishini tekshirish (**5-rasm**).



**5- rasm**

Stanok staninasiga indikator 1 ni ustuni bilan uchi tekshiriladigan silindrsimon sirt 2 ga tegib turadigan va uning o'qiga perpendikulyar yo'nalishda turadigan qilib o'rnatiladi.


Shpindel qo'l bilan 2 marta aylantiriladi. Markazlashtiruvchi sirtning radial tepishining yo'l qo'yiladigan qiymati 0,005 mm dan oshmasligi kerak. Ulchash natijalari 1.1.-jadvalga yoziladi.

6. Pinolning surilishi bilan supportning bo'ylama yo'na-lishda surilishining parallelligini tekshirish (**6-rasm**): a) vertikal tekislikda; b) gorizontal tekislikda.

Supportning 1=30 mm yurishini ta'minlab, ketingi babkani chetki chap holatga o'rnatiladi va mahkamlanadi. Pinol 3 ni esa orqa babka 4 ning ichiga oxirigacha kiritib mahkamlanadi.

Support 1 ga indikator 2 o'rnatilgan ustunni shunday mahkamlash kerakki, indikatorning uchi pinolning sirtiga **6-rasmda** ko'rsatilgandek tegib tursin.

Pinolni bo'shatib 1=30 mm masofaga oldinga suriladi va qaytadan qisiladi.



6-rasm

Support oldingi babka tomonga bo‘ylama yo‘nalishda suriladi.

Ulchashlar vertikal va gorizontal tekisliklarda bajariladi. Indikator strelkasi ko‘rsatgan qiymatlar 1.1.- jadvalga yoziladi.

Yo'l qo'yiladigan xatolikning qiymatlari vertikal tekislikda 0,008 mm; gorizontal tekislikda 0,04 mm bo'lishi kerak.

Birinchi laboratoriya ishi bo'yicha hisobotda ishning maqsadi, stanokning vazifasi, unda bajariladigan ishlar ifodalanadi. Asosiy topshiriq-stanokning geometrik aniqligini berilgan usul bilan tekshirishni bajarishda olingan natijalar jadvalga yoziladi (1.1- jadval). Unda ishning xulosasi ham qayd etiladi, talaba va o'qituvchi imzo qo'yadi.

## 1.1- j a d v a l